

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”:

Fakultet dekani v.b.

f.f.n., dotsent Z.B.Qobilova

2019-y

5111200 – O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
403-guruh talabasi Raxmonberdiyeva Shoxidaxon Lutfullo
qizining “Umumta'limga muktabalarining adabiyot darslarida integrasiyadan
foydalanish metodikasi” mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

M.Jamoliddinov,
o'zbek adabiyoti
kafedrasи dotsenti, p.f.n.

Taqrizchilar:

M.Siddiqov,
o'zbek adabiyoti kafedrasи dotsenti, f.f.n.,

Z.Madaminova,
Qo'qon shahar 7-maktab ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi.

“Himoyaga tavsiya etilsin”:
O'zbek adabiyoti kafedrasи mudiri

p.f.n., dotsent M.Jamoliddinov
“_____” 2019-y

Kirish.....	2
I bob. Adabiyot darslarini o‘qitishda integrasiyadan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari.....	5
I.1. Integrasiya va uning ilmiy-nazariy asoslari.....	5
I.2. Adabiyot darslarida fanlararo integrasiyadan foydalanish.....	13
II bob. Umumta’lim maktablarining adabiyot darslarida integrasiyadan foydalanish metodikasi.....	26
II.1. DTS talablari asosida yaratilgan darsliklarda aks etgan mavzularni o‘tishda integratsiyadan foydalanish usullari.....	26
II.2. Umumta’lim maktablarida adabiy mavzularni o’rgatishda fanlararo integrasiyadan foydalanish metodikasi.....	30
II.3. Dars ishlanmalari	35
Xulosa.....	46
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati	48

Kirish

Mavzuning dolzarbliги.

Mamlakatimizda jadal davom etayotgan yangilanish jarayonida o'sib kelayotgan yosh avlodga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Milliy mustaqillik mafkurasi va yangicha tafakkur yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalashga keng yo'l ochdi.

Ta'kidlab o'tganimizdek, mustaqillik sharofati bilan o'zbek diyorida ham yangilanish rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot umumjahon andozalariga mos yo'nalishlarga jadal sur'atlar bilan kirib bormoqda. Xalq xo'jaligining barcha sohalari, shu jumladan, ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. "Ta'lim to'g'risida" gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Davlat ta'lim standartlari" ning qabul etilishi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonunida shunday belgilab qo'yilgan:

"... Ijodkor shaxsni tarbiyalash ta'lim tizimining bosh vazifasidir"¹.

Keyingi yillar shunisi bilan e'tiborliki, o'zbek xalqining uzoq asrlik boy madaniy va ma'naviy merosini o'rganish va tiklash, yaqin o'tmish asarlarini bugungi kunda shakllangan tahlil tamoyillari asosida baholash borasida bir talay xayrli ishlar amalga oshirildi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "Biz diniy jaholatga, zararli oqimlarga qarshi marifat bilan kurashish kerakligi haqida ko'p gapiramiz. Bu to'g'ri, albatta. Lekin marifat, marifiy bilimlar qaerda-avvalo, ota-bobolarimiz bizga qoldirib ketgan mana shunday mo'tabar kitoblarda emasmi?"²- degan purma'no so'zları mumtoz adabiyotimizni o'rganib, targ'ib etuvchi adabiyotshunosligimiz uchun taalluqlidir.

¹ "Ta'lim to'g'risidagi qonun". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisning IX sessiyasida so'zlagan nutqidan. 1997 yil. 29 avgust.

²Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлисга мурожатномаси.- Маърифат.2017 йил 23 декабрь.

Ko’rinib turganidek, istiqlol davrida o’qituvchilarga talab juda ham kuchayib bormoqda. O’sib kelayotgan yosh avlodni mustaqil fikrlashga o’rgatish uchun, avvalo, ta’lim sohasida belgilab qo’yilgan barcha fanlarni mukammal o’rganish, ular o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlash zarurdir.

Mazkur sohaning – fanlararo bog’liqlikning o’rganilishi, o’quvchi ijodiy fikrlashining milliy g’oya va xolislik asosida monografik yo’nalishda tadqiq etilishi mavzu dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o’rganilganlik darajasi. Adabiyotni boshqa fanlar bilan aloqadorligi masalasiga adabiyot o’qitish metodikasi sohasida alohida e’tibor qaralgan. Bu sohada professor Asqar Zunnunovning “Adabiyotni boshqa ijtimoiy – gumanitar fanlarga bog’lab o’rganish” (1982-yil, Toshkent), Qozoqboy Yo’ldoshevning “Adabiyot o’qitishning ilmiy-nazariy asoslari” (1996-yil), Marg’uba Mirqosimova “O’quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari” (2006-yil), Boqjon To’xliyevning “Adabiyot o’qitish metodikasi” (2006-yil), Valijon Qodirovning “Mumtoz adabiyot: muammo va yechimlar” (2009-yil), To’xliyev va boshqalar “Darslik ustida ishlash” (2007-yil) kabi tadqiqot ishlarida mavzuga aloqador jihatlar o’z tasdig’ini topgan.

Bitiruv-malakaviy ishning maqsadi. Umumiyoq o’rta ta’limda adabiyot fanini o’qitishda fanlararo integrasiyaning samarali vosita ekanligini aniqlash.

Bitiruv-malakaviy ishning vazifalari. Ishdan ko’zlangan maqsadga erishish uchun quyidagi masalalarni yoritish vazifa qilib belgilanadi:

- adabiyot darslaridagi ijtimoiy-psixologik va estetik omillarni aniqlash;
- adabiyot ona tili, musiqa, tarix va fanlari integrasiyasidagi o’ziga xos jihatlarni talqin etish, yoritish.

Bitiruv-malakaviy ishning manbalari. Ilg’or pedagogik tajribalarni o’rganish, tahlil qilish. Yangi pedagogik metodlarni ta’lim jarayoniga joriy etish,

Bitiruv-malakaviy ishning ilmiy yangiligi. Ishda ilgari surilgan g’oyalar, ish turlarining xilma-xilligi, didaktik o’yinlardan foydalanish, dars jarayoniga yangicha qarashlarni joriy etish tadqiqotning ilmiy yangiligidir.

Bitiruv-malakaviy ishning ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishda ilmiy ma'lumotlar asoslanilgan. Tavsiya qilingan ishlanmalarni dars jarayoniga tatbiq etish, ulardan samarali natijalar olish esa uning amaliy ahamiyatidir.

Bitiruv-malakaviy ishning tarkibiy qismi. Mazkur BMI kirish, ikki bob, har bir bobda kichik fasllar hamda xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiyligi hajmi 50 bet.

I bob. Adabiyot darslarini o‘qitishda integrasiyadan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari

I.1. Integrasiya va uning ilmiy-nazariy asoslari

Integrasiya – lotincha “integratio” – tiklash, to’ldirish, “integer” – butun so’zidan olingan. Fanlarning yaqinlashishi va o’zaro aloqa jarayoni.

Integrasiya vositasi o’quvchilarni integrasiyalangan va o’quvdan tashqari materiallar (kompleks muammoli masalalar) ni o’zlashtirish jarayoniga kiritish vositasi sifatida tasvirlanadi. Bu vositalardan moddiy va ideal vositalarni, shuningdek, xususiy vositalarni, vosita usullarini ajratish mumkinligini nazarda tutadigan pedagogik vositani keng sharhlash joiz. Vositalarni turli xil asoslari bo’yicha aniqlash mumkin.

Adabiyot ta’limi o’z oldiga bir qator maqsadlarni qo’yadi. Umumiy o’rta ta’lim maktablaridagi adabiy ta’lim asosan fan ilmiy maqsadlarini emas, balki ma’naviy-axloqiy yo’nalishlar ustuvorligini ko’zda tutadi. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- o’quvchilarning yosh xususiyatlarini e’tiborga olgan holda, milliy va jahon adabiyotining eng munosib namunalari bilan tanishtirish asosida ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik singari yuksak insoniy fazilatlarga nisbatan rag’bat, mehr va muhabbat uyg’otish;
- ularni fuqorolik va vatanparvarlik ruhida adabiyotga, milliy, madaniy-ma’rifiy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash;
- ularning boy ma’naviy dunyosini shakllantirish;
- badiiy asar va uning poetik xususiyatlarini o’rganish asosida o’quvchida tanqidiy fikrlashga oid ko’nikma va malakalarni hosil qilish;
- ulardagi mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishi va rivoji uchun imkoniyat yaratish;
- ularda har qanday ma’naviy xurujlarga nisbatan sog’lom va baquvvat e’tiqodga tayanadigan immunitetni shakllantirish;

- so'z san'ati vositasida o'quvchining individual va shaxslik fazilatlarini rivojlantirish.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarning bajarilishi zarur bo'ladi:

- o'quvchilarda badiiy adabiyotga nisbatan mehr uyg'otish;
- o'quvchilarning badiiy adabiyotning janr va uslubiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, uni tahlil qilishning munosib shakllarini topish va amalda qo'llashga o'rghanishlariga erishish;
- o'quvchilarning og'zaki nutqlarini adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojini ta'minlash;
- ularning yozma nutqlarida yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-barangliklardan foydalana olishga oid ko'nikma va malakalarning shakllanishiga erishish;
- adabiy-badiiy asar mohiyatini, uning asosiy nuqtalarini og'zaki va yozma tarzda ifodalay olish, bu haqdagi o'z fikrlarini boshqalarga og'zaki va yozma tarzda ifodalay olish, bu haqdagi o'z fikrlarini boshqalarga og'zaki va yozma tarzda yetkazish yo'llarini egallah;
- badiiy asar mazmun va mohiyatini, undagi go'zallik va nafosatni his etishga o'rgatish;
- ulardagagi badiiy matnni emotsiyal tarzda idrok etish va qabul qilishni, obrazli va analitik tafakkur va ijodiy fikrlashni, kitobxonlik madaniyatini, adabiyotning boshqa san'at asarlari bilan yaqin va farqli jihatlari haqidagi tasavvurlarini, ularning og'zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish.

Integrasiyalashgan dars natijalari o'quvchilarning ijodiy fanlari rivojida namoyon bo'ladi. Fanlararo integrasiya- bir necha o'quv predmetning bir-biriga taalluqli sohalarini ko'rsatish emas, balki integrasiyalab o'qitish orqali o'quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta'kidlashicha integrasiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi. Integrasiyaning quyidagi darajalarini belgilash mumkin.

1. Tematik (mavzuiy) integrasiya

2. Muammoli integrasiya

3. Konseptual integrasiya

4. Nazariy integrasiya

- Mavzuiy integrasiyada ikki-uch xil predmet bitta mavzuni olib beradi. Bu darajani illyustrativ –tavsifiy deb atash mumkin.
- Bitta muammoni har xil predmet imkoniyatlari bilan yechish, muammoli integrasiya bo‘ladi.
- Konseptual integrasiyada har xil o‘quv predmetlarning vosita va uslublari yordamida bitta konsepsiya ko‘rib chiqiladi.
- Har xil nazariyalarning o‘zaro falsafiy singishi nazariy integrasiya hisoblanadi. Misol uchun ona tili va axborot kommunikatsion texnologiyalar vositalari yordamida nazariy ma’lumotlar yoki kerakli slaydlar namoyishi o‘tkazishi o‘tkaziladi. Mavzularni o‘tayotganda fanlararo uyg‘unlik ko‘zga tashlanadi³.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi “Badantarbiya” matni ustida ishlaganda, jismoniy tarbiya, salomatlik, ekologiya, mehnat kabi fanlar uyg‘unligi namoyon bo‘ladi.

Muhammad Yusufning “Vatanim” she’rini o‘rganganda, 10 ta joy nomi tilga olinganligining guvohi bo‘lamiz.

Bular:	O‘zbekiston,	Balx,
	Qozon,	No‘tsand,
	Sirdaryo,	Qashqar,
	Enasoy,	Kurdiston,
	Hindiston,	Chambil.

Mazkur she’rda 12 nafar tarixiy shaxslar keltirilgan.

Bular:	Mashrab,	Alisher Navoiy,
	Zahiriddin Muhammad Bobur,	Ahmad Yassaviy,
	Amir Temur,	Temur Malik,
	Muqanna,	Shiroq,
	Alpomish,	Mirzo Ulug‘bek,

³ Интернет материаллари.

Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir,
Jaloliddin Manguberdi, CHingizzon.

Ta’lim tizimi oldida o‘quvchilarning axborot olish va qayta ishlash madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish vazifalari turibdi. Bu jarayonning muvafaqiyatli kechishida o‘qituvchining o‘z maslahatchisi, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, o‘quv jarayonining boshqaruvchiisga aylanib boradi. O‘qituvchi axborot manbai, tarqatuvchi funksiyalarini axborot texnologiyalari zimmasiga yuklaydi.

Bunda bosh masala bilimlar olamiga kirish, bu olamning resurslaridan foydalanish va o‘zlashtirishga bog‘lanib qoladi. O‘quvchi axborot resurslaridan foydalanish va o‘zlashtirishga bog‘lanib qoladi. O‘quvchi axborot ummonida yangicha qoidalarni o‘rganish, barcha o‘quv fanlari kesimida axborot olish, uni qayta ishlay olishi zarur bo‘ladi.

Ta’limda o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning nutq, so‘z, tovush bilan bog‘lagan usullari ikkinchi darajaga tushib, o‘qitishning tasavvur, shakl, rang, tasvir bilan bog‘liq usullari birinchi o‘ringa o‘ta boshlaydi.

Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabitur. (Abdulla Avloniy)

Zamonaviy darsni o‘tkazish bo‘yicha o‘qituvchiga tavsiyalar:

- Har bir dars tashkiliy qismdan boshlanadi: bu davrda o‘qituvchilarni, sinf xonasini ta’lim vositalarni darsga tayyorlaydi.
- O‘quvchini psixologik jihatdan darsga tayyorlash muhim rol o‘ynadi.

Har bir fan, ayniqsa, o‘z xususiyatiga ko‘ra bir-biriga yaqin fanlar – adabiyot, til, tarixi, musiqa, tasviriy san’at- maktabda uzviy birgalikda o‘rganiladi.

Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘lab o‘rganishda o‘quvchilarning faoliyat ko‘rsatish muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi tafakkur qilish, faoliyat ko‘rsatish bilan bilimlarni egallaydi, uning ongida bilim tafakkur va faoliyat mahsuli sifatida shakllanadi va rivojlanadi.

O‘quvchilarda anglash faoliyatini oshirish uchun ularga ta’lim usullarini o‘rgatish muhimdi. Ta’lim usullari o‘quv materialini puxta esda qoldirish faoliyatini ham o‘z ichiga oladi. O‘quvchilar ta’lim usullarini o‘rganish natijasida oz vaqt sarflab, ko‘proq bilim olish, o‘quv materialini ongli ravishda o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. SHuning uchun o‘qituvchidan o‘quvchilarda ta’lim usullaridan foydalanish ko‘ningmasini o‘stirib borish talab etiladi.

Ta’lim usullari o‘z darajasiga ko‘ra, xususiy (faqat bitta mavzu yoki bitta fanga taalluqli) va umumlashgai fanlararo usullarga bo‘linadi. Ta’limda bu usullarii qo‘llash o‘quvchilarda bilimini o‘stirish va mustahkamlashga yordam beradi.

Fanlarni o‘zaro borlab o‘rganish usuli u yoki bu fan bo‘yicha o‘rganilayotgan voqeа va hodisa haqida o‘quvchida jonli mushohada qilish malakasini o‘stiradi, bu bilai o‘quvchi voqeа, hodisa haqida aniq tasavvurga ega bo‘ladi. O‘qituvchi ularda hosil bo‘lgan ana shu tasavvurni umumlashtiradi, natijada o‘quvchilarda u yoki bu fan haqida aniq tushuncha shakllanadi.

Darsda har bir voqeа, atroflicha, ya’ni unga xos beslgilarni o‘zaro aloqada, birlikda o‘rganish ularni puxta anglashni ta’minlaydi. Tabiatdagi o‘zgarishlar haqida ilmiy fikr yuritish voqelikni bilishda eng ishondi yo‘l bo‘lib, u har bir fan bo‘yicha to‘plangan bilimlarni to‘g‘ri umumlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlarga borlash o‘ziga xos xususiyatga ega. O‘qituvchi og‘zaki bayon, suhbat, mustakil ishslash usullaridan foydalanadi. Agar darsni suhbat bilai o‘tkazish rejalashtirilsa, oldin mavzuga oid dalillar to‘planadi, u dalil mavzuga qiyoslanadi, qiyoslash yo‘li bilan o‘quvchilar o‘qituvchining savollariga javob beradilar, o‘qituvchi ularning javoblari puxta anglashini ta’minlaydi. Tabiatdagi o‘zgarishlar hakida ilmiy fikr yuritish voqelikni bilishda eng ishoichli yo‘l bo‘lib, u har bir fan bo‘yicha to‘plangan bilimlarni to‘g‘ri umumlashtirish yamkonini beradi.

Adabiyotni boshqa ijtimoiy fanlarga borlash o‘ziga xos xususiyatga ega. O‘qituvchi og‘zaki bayon, suhbat, mustaqil ishslash usullaridan foydalanadi. Agar darsni suhbat bilan o‘tkazish rejalashtirilsa, oldin mavzuga oid dalillar to‘planadi,

u dadil mavzuga qiyoslanadi, qiyoslash yo‘li bilan o‘quvchilar o‘qituvchining savollariga javob beradilar, o‘qituvchi ularning javobini umumlashtiradi va xulosalaydi.

Adabiyot darsida o‘quvchilarga berilgan bilimni mustahkamlash maqsadida ham boshqa fanga doir materiallardan foydalaniladi. Bunday vaqtida o‘quvchilarga asosiy maqsad aytiladi, tahlil jarayonida yangi mavzu qo‘sishimcha materiallarga bog‘lab etiladi, keyin materiallarning qay darajada o’zlashtirilgani aniqlanadi. Shu yo‘sinda ish olib borish, bir tomondan, darsda o‘quvchilarning faolligini oshiradi va ularni yangi materialni faol idrok etishga tayyorlaydi, ikkinchi tomondan, o‘quvchilarning nazariy bilimlarni oshiradi, materialni uzoq vaqt xotirada saqlashlari uchun zamin yaratadi, ularda bilimni hayotga tatbiq etish malakasini o‘stiradi.

Fanlararo bog‘lanishni tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin. Chunki fanlar o‘quvchilarni dalil va hodisalar tahlilini turli usulda uyushtirishga o‘rgatadi, bu esa o‘quvchilarda qiziqish hissini, ilmiy dunyoqarashni shakllaitirish va o‘stirishga, aqliy fikrlashni faollashtirishga yordam beradi. Demak, o‘quvchilarniig adabiyotdan qay darajada chuqr va puxta bilimga ega bo‘lishlarn ularning boshqa ijtimoiy fanlar bo‘yicha olgan bilimlari va hosil qilgan malaka hamda ko‘nikmalariga suyangan holda ish ko‘rishga ko‘p jihatdan borliqdir.

Adabiyot fani o‘quvchilarning estetik va g‘oyaviy- ijtimoiy tarbiyasida ham g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Adabiyot a na shunday xususiyati bilan boshqa ijtimoiy fanlarga bog‘lanadi. Chunonchi, u estetik ta’sirchailik xususiyati bilan ona tili va psixologiyaga, g‘oyaviy- ijtimoiy mazmuni bilan tarix va jo‘g‘rofiya bilan egizakdir.

Ijtimoiy fanlar o‘z tarkibiga ona tili, adabiyot, tarix, musiqa, ashula, rasm fanlarini qamrab oladi va ularni o‘zaro birlashtiradi. Ammo ularning har biri o‘zining tadqiq etish manbaiga va usuliga ega. Shu sababli, maktabda ularni

o‘rganishda o‘quvchilarning bu fanlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni, har biriga xos xususiyatini, har birini o‘rganish usullarini bilib olishlariga erishish o‘qituvchilar oldiga asosiy vazifa qilib qo‘yiladi. Ijtimoiy fanlarni o‘rganishning asosiy sharti o‘rganiladigan hodisa va qonuniyatlarning tarixiylik, adabiy-badiiylik, til xususiyatlarini birlikda o‘rganishda namoyon bo‘ladi. Har bir fanning o‘ziga xos xususiyatiga e’tibor berilmasa, bu — tarixiy va adabiy hodisalarini o‘quvchilarga tushuntirishda soxtalikka, chalkashlikka olib keladi.

Ijtimoiy fanlar o‘zaro bog‘liq holda o‘rganilmasa, o‘quvchilar ongida har bir fan bo‘yicha bir-biridan ajralgan tushunchalar hosil bo‘ladi, ular tarixiy, falsafiy, adabiy dalillar va qonuniyatlar haqida bir butun bilimga ega bo‘lmaydilar. Bu esa o‘quvchilarda ijtimoiy hayot va san’at hodisalarini mustaqil aniqlash malakasini va izchil dunyoqarashni shakllantirishga salbiy ta’sir qiladi.

Ijtimoiy fanlarni, ayniqsa, adabiyot va tarixni o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishda axloqiy, estetik va ijtimoiy-siyosiy tarbiya har tomonlama kamol topgan faol shaxsni o‘sirish vazifalari bilan uyg‘unlashib ketadi va umumiylilikni tashkil qiladi. Bu esa o‘z navbatida, mashg‘ulotlarda o‘quvchilar inson ideallari faqat nazariy tushuncha bo‘lmay, obrazli umumlashma ekanini ham bilib olishlariga imkon beradi.

Fanlararo aloqani amalga oshirishda, o‘qituvchi o‘z fanini yaxshi bilishi bilan birga, boshqa fanlardan ham xabardor bo‘lishi muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchi, avvalo, o‘z fanini, o‘zi o‘qitayotgan fanni, uning asoslarini bilishi kerak. U fanning mohiyatini, hozirgi ahvolini, uning taraqqiyotidagi asosiy bosqichlarni, uning boshqa fanlar bilan, ijtimoiy munosabatlar bilan aloqasini bilishi, amaliyot bilan aloqasini tushunishi kerak.

Fanlararo aloqaga xos xususiyat nimadan iborat? Fanlarni o‘zaro bog‘lab o‘rganiladigan darslar odatdagи mashg‘ulotlardan nimasi bilan farq qiladi?

Fanlararo bog‘lanishga xos xususiyat, avvalo, darsdan kuzatilgan maqsad va

vazifalarga qarab belgilanadi, ularni bog‘lashdagi muvaffaqiyat esa darsning to‘g‘ri tashkil etilishiga, qo‘llanadigan usullarga bog‘liqdir.

O‘qituvchi dastur materiallarini o‘tishda darsning mazmuniga, o‘quvchilarinig bilim saviyasiga, o‘zlashtirish qobiliyatiga, o‘quv qurollarining mavjudligiga qarab usullarni tanlaydi. Shuningdek, o‘qituvchi:

- 1) Yangi mavzuni o‘tishga ajratilgan soatni hisobga oladi;
- 2) boshqa ijtimoiy fanlar bo‘yicha yangi mavzuni o‘zlashtirishga yordam beradigan materiallarni aniqlaydi;
- 3)darsda qo‘llash zarur bo‘lgan ko‘rgazmali qurollarni (jadval, xarita, rasm, radiolar, magnitofon) tayyorlaydi va ulardan foydalanadi;
- 4) o‘quvchilarning boshqa ijtimoiy fanlardan o‘zlashtirgan bilim hamda egallagan ko‘nikmalarini aniqlaydi va ularga suyanadi⁴.

⁴ Зуннунов А., Хотамов Н. ва бош. Адабиёт ўқитиши методикаси. Т. “Ўқитувчи”. 1992. 16-бет

I.2.Adabiyot darslarida fanlararo integrasiyadan foydalanish metodikasi

Badiiy asar tahlida fanlararo integrasiyadan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish g‘oyasi yotadi. Badiiy asar tahliliga bunday yondashuvni ifodalashda yagona qoida asosida ya’ni shakldan mazmunga tarzida ish ko‘rish zarur. Shunday qilinganda asar mazmuni va jozibasiga putur yetmaydi. Chunki, bunda bir vaqtning o‘zida muayyan voqelik uchun bir qator tasniflarning mavjud bo‘lishi fanlararo integrasiya elementlari asar tahlilining yanada mukammal bo‘lishini ta’minlaydi. Asar yuzasidan bildirilgan mulohazalar davomida o‘quvchining fikrlash qobiliyati o‘sadi. Ayni shu jarayonda xilma-xil innovatsion texnologiyalarni tizimli bir loyiha zanjiriga birlashtirishni o‘quvchi va o‘qituvchi faoliyatini ijobiy va samarali natijani ta’minlashga mashg‘ulotdan ko‘zlangan natijani ro‘yobga chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyot darslarida fanlararo integrasiyaning dolzarbliji adabiyot darslarida fanlararo integrasiya quyidagi ta’lim muammolarini hal hal etish imkonini beradi va davr talabiga mos keladi:

Badiiy asar tahlilini real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta’minlaydi nazariy ma’lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lash va o‘quvchilarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi.

Kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlaydi. O‘qituvchi o‘quvchilarga adabiyot fanini, badiiy asar tahlilini fanlararo integrasiya asosida o‘rganishga kirishar ekan, shunday savol tug‘iladi: qaysi o‘qitish usuli tahlanadi, qanday didaktik materiallardan foydalanish mumkin, asar tahlilini qaysi usullar orqali amalga oshirish samarali bo‘ladi? Bu savollarga javob topishda o‘qituvchining intelektual salohiyatini namoyon etishda innovatsion texnologiyalardan o‘rinli foydalanish talab etiladi.

Umumiyligi holda usulning tanlanishi ta’lim-tarbiyaning maqsadi bilan aniqlanadi. Ayrim hollarda o‘qituvchi o‘quvchilar o‘rtasidagi faoliyat turlari almashib turadi. Bu hol ko‘pincha akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida kuzatiladi. Tabiiyki bunday faoliyat turlariga mos holda o‘qitish usullari o‘zaro muvofiqlashtiriladi.

Adabiyot o‘qituvchisining badiiy asar tahliga tayyorgarlik ko‘rishida metodik usullarni tanlash–uning o‘zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo‘yicha muvozanatlashtirdi, bu esa o‘z navbatida o‘quvchilar faolligini yuqori darajasini ta’minlashga sharoit yaratadi. To‘g‘ri qo‘llanilgan usullar badiiy asarga o‘quvchilarda qiziqish va muhabbatni kuchaytiribgina qolmay, asar tahliliga oid ilmiy-nazariy bilimlar bilan birga boshqa fanlardan olingan bilimlarni qayta xotirlash orqali ularni yanada chuqurlashtiriadi. Adabiy asarlar tahlilda fanlararo integrasiyadan foydalanidh o‘quvchilar bilim doirasini har tomonlama rivojlanishi va kasbiy qiziqishlarini takomillashishiga, amaliy faoliyatni faollashtirishga olib keladi.

Innovatsion texnologiyalarni adabiyot darslarida badiiy asarni fanlararo integrasiya asosida tahlil qilishgada mavzu maqsadiga mos tarzda loyihalashtirish quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. O‘rganilayotgan badiiy asarni tahlil qilish.

Ta’lim mazmuni elementi sifatida asarning o‘ziga xos jihatlari va mavzu doirasi aniqlanadi. (Asarda aks ettirilgan voqelik, qahramonlar faoliyati, tarixiy davr va muhit, geografik o‘rin). Asar tahlilining muvaffaqiyatli kechishi uchun mos keladigan o‘qitish metodlarining muayyan guruhini tanlash.

Badiiy asarning mantiqiy tuzilmasi xarakteri (yaxlit yoki qisman) va psixologik tabiatini (mantiqiy-isbotli, hayajonli-timsolli, aniq-harakatli xarakter) belgilab olinadi.

Biluv topshiriqlarining mazmunli jamlamasini ajratish mzasadida badiiy asarning o‘ziga xos jihatlari, ichki yo‘nalishlari, tomonlari, tafovutlari tahlil qilinadi.

2. O‘rganilayotgan badiiy asarning o‘quvchilar uchun yangilik va bilimlarni egallashda mustaqillik darajasini, vaqt omili hamda variantlarning mazmunini tahlillash asosida ajratilgan biluv natijalarini maqbullashtirish masalalarini hisobga olib aniqlanadi.

3. Badiiy asarning mazmunidan kelib chiqib o‘qitishning muayyan bosqidhidagi tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalalarni yechish zaruratini hisobga olgan holda belgilangan topshiriqlarni tahlillash va baholash.

4. Badiiy asar tahlilida fanlararo integrasiyani amalga oshirish jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalarni bir-biriga qo‘shilishi ketma-ketligini muvofiqlashtirish.

5. Badiiy asarlarni o‘rganish jarayonida ta’lim oluvchilar faoliyatini murakkablashtirish va mustaqilligini oshirish.

Badiiy asarni fanlararo integrasiya asosida tahlil qilishda mavzu maqsadiga mos tarzda loyihalashtirish quyidagi bosqichlarni qamrab oladi

O‘rganilayotgan badiiy asarni tahlil qilish. Ta’lim mazmuni elementi sifatida asarning o‘ziga xos jihatlari va mavzu doirasi aniqlanadi. Badiiy asarning mantiqiy tuzilmasi xarakteri va psixologik tabiatи belgilab olinadi. Asar tahliliga mos keladigan o‘qitish metodlari tanlanadi.

O‘rganilayotgan badiiy asarning o‘quvchilar uchun yangilik va bilimlarni egallashda mustaqillik darajasini vaqt omili hamda variantlarning mazmunini tahlillash asosida ajratilgan biliv natijalarini maqbullashtirish masalalarini hisobga olinadi.

Badiiy asarning mazmunidan kelib chiqqan holda o‘qitishning muayyan bosqichidagi tarbiyaviy va rivojlantiruvchi masalalarni yechish zaruratini hisobga olgan tarzda belgilangan topshiriqlarni tahlillash va baholash.

Badiiy asar tahlilida fanlararo integrasiyani amalga oshirish jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion texnologiyalarni bir-biriga qo‘shilishi, ketma-ketligini muvofiqlashtirish.

Badiiy asarlarni o‘rganish jarayonida ta’lim oluvchilar faoliyatini murakkablashtirish va mustaqilligini oshirishga qaratish.

Adabiyot darslarida fanlararo integrasiyadan foydalanish uchun mos usullarni tanlashda quyidagi mezonlarga amal qilish lozim.

1. Fanlaro integatsiya badiiy asar tahlilini yuksak saviyada bo‘lishiga, o‘quvchilarni asar mavzusi va mazmunini va asar jozibasini his qilishlariga yo‘naltirilishi lozim.

2. Adabiyot darslarida fanlararo integrasiyani amalga oshhirishda qo‘llanadigan innovatsion texnologiyalarning harakatlanish shakli aniqlanadi. Bu o‘z navbatida mavzu mazmununi to‘liq ochib berilsa, boshqasi uni to‘ldirishiga imkon tug‘diradi.

3. Tanlangan usullarni o‘quvchilar o‘quv imkoniyatigaga to‘liq mos kelishi, bunda o‘quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlar birligi ta’minlanadi. Real o‘quv imkoniyatlarini aniqlashda quyidagi shartlarni aniqlash kerak: o‘quvchilarning mustaqil faoliyatga tayyorgarligi (o‘quv ishlarini rejalashtirish, mahsg‘ulot maqsad va vazifalarini to‘liq belgilab olidh, o‘z- o‘zini nazorat qilish, teskari muloqot o‘rnatish); o‘quvchilarning ijodiy faoliyatga tayyorgarligi (fikrlash mustaqilligi, asarni badiiy idrok etishi, topshiriq shartlarini belgilash va uni yechish metodlarini mustaqil topidh ko‘nikmasi); o‘qishga munosabat va boshqalar.

4. Adabiyot darslarida fanlararo integrasiyadan foydalanishda pedagogning shaxsiy imkoniyatlari mos kelishi. O‘qitish usullari nazariyasi va amaliyoti o‘qitish jarayonining qonuniyatları, bilish nazariyalari, ta’lim nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasi.

5. Badiiy asar tahlili jarayonida fanlararo integrasiyani ta’minalashda o‘quv jarayonini innovatsyon texnologiyalar asosida tashkil etish (Frontal (yalpi) guruhli va individual shakllari). Asar voqealrining ko‘lamiga qarab mavzuninfgmurakkablik darajasiga mos holda shakl va uslublarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minalash.

Adabiyot darslarida fanlararo integrasiyadan foydalanish uchun mos usullarni tanlash mezonlari:

- Fanlarao integatsiya badiiy asar tahlilini yuksak saviyada bo‘lishiga, o‘quvchilarni asar mavzusi va mazmunini, asar jozibasini his qilishlariga yo‘naltirilishi lozim.

- Fanlararo integrasiyani amalga oshhirishda qo'llanadigan innovatsion texnologiyalarning harakatlanish shakli aniqlanadi. Bu o‘z navbatida mavzu mazmununi to‘liq ochib berilsa, boshqasi uni to‘ldirishiga imkon tug‘diradi.
- Tanlangan usullarni o‘quvchilar o‘quv imkoniyatigaga to‘liq mos kelishi, bunda o‘quv faoliyati uchun ichki va tashqi shart-sharoitlar birligi ta’mindadi; o‘quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatga tayyorgarligi, o‘qishga munosabat va boshqalar.
- Fanlararo integrasiyani ta’minlashda o‘quv jarayonini innovatsiyon texnologiyalar asosida tashkil etish (frontal (yalpi) guruhli va individual shakllari). Asar voqealrining ko‘lamiga qarab mavzuning murakkablik darajasiga mos holda shakl va uslublarning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash.
- Integrasiyadan foydalanishda pedagogning shaxsiy imkoniyatlari mos kelishi: o‘qitish usullari nazariyasi va amaliyoti, o‘qitish jarayonining qonuniyatlari, bilish nazariyalari, ta’lim nazariyasi va boshqa mavjud qonunlar bilan qurollanganlik darajasi.

Umumta’lim maktablarining 9- sinf adabiyot darsligidan Cho‘lponning “Go‘zal”, “Ko‘ngil”, “Xalq” she’rlari ham o‘rin olgan. Darslikka bu she’rlar beziz kiritilmagan. Chunki, ushbu she’rlarda tasvirlangan voqelik zamiridagi botiniy voqelik xalqimizning ezgu-armonlarini o‘zida jamlagan, shuningdek bu she’rlarda ezgilik va jaholatning o‘zaro to‘qnash kelganligini ko‘ramiz. Inson uchun eng buyuk baxt bu erk, Vatan va yurtini ozod va obod ko‘rishdir. Cho‘lponning maktab darsligidan o‘rin olgan yuqorida nomlari keltirilgan she’rlarida shoirning ichki kechinmalari, ruhiy olamidagi iatiroblar, vataniga, xalqiga bo‘lgan muhabbati nihoyatda go‘zal tarzda badiiy ifodasini topgan.

9-sinfda Cho‘lponning “Go‘zal”, “Ko‘ngil”, “Xalq” she’rlarini o‘qib o‘rganishda fanlararo integrasiyadan foydalanishni qanday amalga oshirish nunkinligiga to‘xtalamiz va bunda “Qarorlar shajarasi” metodini qo‘lash samarasini ko‘rib chiqamiz.

“Qarorlar shajarasi ” metodi. Bu metod o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish va uni himoya qilishga o‘rgatadi. Bu metoddan muayyan fan asoslari borasidagi

murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama tahlil etish asosida ular yuzasidan tegishli xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbulini va to‘g’risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuv hisoblanadi. Bu metodning ahamiyatli jihat shundaki, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlar mohiyatini yana bir karra tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Bu metodni qo‘llash jarayonida butun sinf o‘quvchilarining bilim darajasini baholashga imkon bo‘ladi, hamda o‘quvchilar tomonidan bildirilgan har bir qarorning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riliqi mukammal tahlil qilinadi.

“Qarorlar shajarasi” metodi quyidagi tartibda amalga oshiriladi;

1. O‘qituvchi mashg’ulot boshlanishidan oldin munozara va tahlil uchun biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni yozish uchun plakatlar tayyorlaydi.

2. O‘qituvchi mashg’ulot uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi va o‘quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishidan iborat guruhlarga ajratadi. Shundan keyin mavzuga oid muammoni hal etib tegishli qaror qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

Bu vaqt mobaynida o‘quvchilar muammo yuzasidan o‘zlarining qarorlarini qabul qilishlari lozim bo‘ladi.

3. Qarorni qabul qilish jarayonida guruhlarning har bir a’zosi tomonidan bildirilayotgan qarorlarning maqbullik va nomaqbullik jihatlari har tomonlama muhokama qilinadi va fikrlarning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida guruhlar muammoni ijobiylar hal etishga xizmat qiluvchi qarorga kelishadi.

4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, guruh qarori haqida axborat beradilar va bu qarorga kelishlari sababini tushuntirib beradilar. Zarur hollarda o‘qituvchi rahbarligida barcha o‘quvchilar bildirgan qarorlar bir-biriga qiyoslanadi.

Qarorlar yuzasidan bildirilgan qarorlar borasida savollar tug’ilgudek bo‘lsa, ularga javob beriladi, noaniqliklar bartaraf etiladi. Bordi-yu, barcha guruhlar

muammo yuzasidan bir xil qarorga kelishgan bo‘lsa, o‘qituvchi buming ham sababini izohlaydi.

“Qarorlar shajarasi” metodining o‘ziga xos jihatni shundaki, bu metod bevosita ma’lum loyiha asosida qo‘llanadi. Mazkur loyiha quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi

Muammo

2-g‘oya

Qaror

3-g‘oya

1-g‘oya

Darsni boshlashda o‘quvchilarga dars mavzusi e’lon qilinadi va “Evristik” metodi asosida uyga berilgan vazifa so‘raladi va bugungi darsning maqsadi tushuntiriladi. “Co‘zal” she’rining tahlili jarayonida qo‘llanadigan “Qarorlar shajarasi” metodi, uning ta’limiy imkoniyatlari va dars bosqichlari haqida batafsil tushuntiriladi, shuningdek, har bir bosqichuchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlanadi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatiladi.

O‘quvchilar dasr mavzusi hamda dars bosqichlari qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib olganlaridan so‘ng, ularni guruhlarga ajratilib, dars muammosi e’lon qilinadi.

Dars muammosi: Cholponning “Go‘zal” she’ridagi Go‘zal timsolini va ushbu she’rning o‘zbek xalqi tarixi bilan bog’liq jihatlarini aniqlash. Buning uchun sinf o‘quvchilarini beshta guruhga ajratamiz, har bir guruh “Go‘zal” she’rining bir bandini o‘qib chiqqan holda uning o‘zbek xalqi tarixi bilan aloqador qirralarini va shoir “Go‘zal” she’rida tasvirlagan Go‘zalning kimligini yoki nimaligini aniqlashga harakat qilishadi.

Bunda o‘quvcilarning she’r mantini tahlil qilib, matndagi tag ma’noni anglashlari, badiiy haqiqatlarni ko‘ra olish, lirik qahramonlarining kechinmalari va harakatlari asosida o‘zbek xalqining uzoq tarixini anglab yetishlari rag’batlantirildi. Matnni idrok etishlari ucunesa ucun ushbu savollar berildi.

1. Yulduz bilan Oy nima uchun Go‘zalni o‘nglarida emas, tushlarida ko‘rishadi? Bunga sabab nima deb o‘ylaysiz?

2. She’rdagi Go‘zal obrazini kim deb o‘ylaysiz? Odam timsolimi, ozodlik ramzimi, baxtmi yoki taqdir ifodasimi?

O‘quvchilar o‘z guruhlarida “Go‘zal” she’rini bandama-band tahlil qilishga kirishadilar. Ular she’rda tasvirlangan “Go‘zal” timsoliga o‘zlarining munosabatlarini bildirdilar.

1- guruh o‘quvchilari: Bu she’rda tasvirlangan **Go‘zal** bizningcha ozodlik va baxt ramzi. Musatmlakachilar zulmi ostidagi xalq erk va ozodlikni faqatgina orzu qilishar va tushlarida ko‘rishar edi.

II.Bizningcha, ham bu she’rda tasvirlashgan Go‘zal erk va ozodlik ramzi. O‘z erkidan ayrılgan xalq ozodlikni faqatgina tushlarida ko‘rar edi.

2-Guruh o‘quvchilari: Biz ham boshqa guruhlarning fikriga qo‘shilagan holda Go‘zalni ozodlik va erk ramzi deb bilamiz hamda bunga qo’shimcha tarzda Go‘zalni biz o‘zbek xalqining orzusi ramzi deb ham tushunamiz.

3-guruh o‘quvchilari: Biz Cho‘lpon she’rlari botiniy ma’noga egaligini inobatga olgan holda “Go‘zal” she’ridagi Go‘zalda bir qancha ma’nolar yashiringan deb bilamiz.

4-guruh o‘quvchilari: Biz ham bugungi dars maqsadidan kelib chiqqan holda ushbu she’rda o‘zbek xalqining tarixi badiiy ifodasini topgan deb bilamiz. Uzoq yillar davomida xalqimiz erksizlikda turmush kechirib, ozodlik orzusi bilan yashadi.

Shundan so‘ng o‘qituvchi guruhlardan o‘zlarining fikrlarini asoslashlarini so‘raydi:

1.Guruh: Darsimizning maqsadi e’lon qilinganida va o‘tgan darslarda Cho‘lpon she’riyatini o‘zbek xalqining orzu-armonlarini ifoda etishi aytilgan edi. Shunday ekan, “Go‘zal” she’rida “Go‘zal” shunchaki oddiy obraz emas, balki o‘zbek xalqi asrlar davomida intilib kelgan ozodlik va erk timsolidir. Fikrimizni she’rning birinchi bandidagi botiniy g’oya bilan isbotlaymiz.

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen,
Ul yulduz uyalib, boshini bukub,
Aytadir: men uni tushda ko'ramen.
Tushimda ko'ramen – shunchalar go'zal,
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da g'ozal!

Bizga tarixdan ma'lumki, O'rta Osiyo birinchi marta arablar tomonidan bosib olinib, erki va ozodligidan ayrildi. Endilikda yurt hayotida qorong'u kunlar boshlandi. Shuning uchun lirik qahramonning so'rog'idan erk ramzi bo'lgan go'zalni tushida ko'rayotgan yulduz uyalib, uni nihoyatda bir go'zal ekanligini aytadi. Shu tarzda tahlil davom etadi.

Ul-da o'z o'tidan bekinib, qochib
Aytadir: bir ko'rdim, tushdamas, o'ngda.
Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

2- Guruh:

Biz she'rning oxirgi bandini tahliliga to'xatmoqchimiz.
Bu bandda shoир bolsheviklarning yolg'on g'oyalariga ishonib qolgan xalqning yana yangidan mustamlaka zulmiga tushib qolganligini tasvirlab shunday yozadi:

Men yo'qsil na bo'lib uni suybmen,
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyibmen,
Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen,
Men suyb... men suyb kimni suyubmen?
Men suygan suyikli shunchalar go'zal,
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!

Shundan so'ng o'quvchilarining javoblarini tadqiq etib, unga bevosita tarix nuqtai nazaridan yondashilsa, hamda shoирnning she'rlaridagi botiniy ma'noni

anglansa haqiqatdan ham bu she’rdagi Go‘zal ozodlik va erk, taqdir ramzi ekanligi ayon bo‘ladi.

Darsni bu tarzda olib borish natijasida bevosita she’r tahlili jarayonida tarix fani bilan bog’lq voqealar ham esga olinib, darsada fanlararo untegratsiya, yani bog’lanishning yizaga kelishiga erishiladi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlari va dars samaradorligi oshdi.

Akademik litseylarda Boburning hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganishga bag’ishlangan darslarni uch qismga bo‘lib, ya’ni kirish mashg’uloti, badiiy matn tahlili va yakunlovchi mashg’ulotga bo‘lib o‘tish mumkin. “Boburning hayoti va ijodi haqida bizning davrimizda yaratilgan tarixiy, adabiy, san’at asarldaridan foydalanish” bu boradagi ijobiy yutuqlarga yo‘l ochadi. “Bunda alohida olingan she’r, hikoya, rasmlardan boshlab, audio va video imkoniyatlarini qo’llash mumkin. Bobur g’azallari bilan aytildigan qo‘shiqlarning magnitofon tasmasi yoki kompyuter variantidan (“Sochining savdosi tushdi boshima boshdin yana”, “Qaro zulfiqar firoqida parishon ro‘zg’orim bor”, “Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilik”) foydalanish o‘quvchilarning adib asarlarini emotsional qabul qilishlari uchun ham muhim vosita vazifasini bajarishi tabiiydir”⁵.

Biz bilamizki, Bobur nozik didli so‘z san’atkori bo‘lish bilan bir qatorda umrining ma’lum qismini sarsonu sargardonlikda, jangu jadallarda o‘tkazgan, taqdir hukmi ila “o‘z yurti qolib, o‘zga yurtlarda shoh bo‘lgan” buyuk tarixiy shaxs. Shunga ko‘ra shoir lirikasining asosiy mavzusi - Vatan, Vatan sog’inchi; yetakchi g’oyasi - vatanparvarlik,adolatpeshalik, samimiyatga boy mehr-muhabbat, sadoqat tarannumi. Uning bir umr talpinib yetolmagan, halovati, oromini o‘g’irlagan, yuragiga bitmas og’riq solgan, “gul yuzi hajrida sarg’aytirgan”, “oyog’iga xazon bargidek to‘kilib yolbortirgan”, “tole’idan nolitgan” berahm ma’shuqasi - Vatan; tomirida oqayotgan qoni, bo‘g’zidan otilayotgan nafasi - Vatan sog’inchi. Adib umrining har daqiqasida Ona yurti

⁵ Б.Тўхлиев. Адабиёт ўқитиши методикаси. -Т.: А.Навоий номидаги Ўзб.Мил. кутубхонаси, 2010, 61- б.

ishqida yonib yashadiki, bu otashin qalbdagi muhabbat harorati, sog'inch iztirobi har bir g'azal satriga singib kirdi.

Shoir ijodining ayni xususiyatlarini chuqur anglagan, uning alam-iztiroblarini yurakdan his qila olgan kitobxon nazdida Bobur bilan bir vaqtida Vatan tushunchasi gavdalandi, Vatan tuyg'usi, muhabbati kamolga yetadi. Buni biz shoir g'azallari misolida ko'rib o'tamiz.

Xazon yafrog'i yanglig' gul yuzing hajrida sarg'ardim,

Ko'rib rahm aylagil, ey lola rux, bu chehrayi zardim.

Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni s arvdek hargiz,

Ayog'ingg'a tushib, bargi xazondek muncha yolbordim.

Latofat gulshanida gul kabi sen sabz-u xurram qol,

Men archi dahr bog'idin xazon yarpog'idek bordim.

Xazondek qon yoshim sorig' yuzumdin el tanaffurda,

Bahar rangi, bihamdilloh, ulusdin o'zni qutqordim.

Ne toledur mangakim, axtari baxtim topilmaydur,

Falak avroqini har nechakim daftardin axtardim.

Ulucning ta'n-u, ta'rifi menga, Bobur, barobardur,

Bu olamda o'zimni chun yamon-yaxshidin o'tkardim.

Lug'at

ux-yuz

zard – sariq

sarkash – o'jar, qaysar

sabz-u xurram- yashnaganlik

archi -agar

dahr-dunyo

tanaffurda- nafar

bahar rangi- har qalay

bihamdilloh- Ollohga maqtov

uluc- xalq

axtar- yilduz

avroq- varaqlar

Ushbu g‘azalda ma’shuqaga Boburona murojaat yaqqol aks etib turganini ilg’ash qiyin emas. Chunki har bir she’rida ma’shuqaga turli tuman ifodalar bilan murojaat qilish shoir lirikasining yetakchi xususiyatlaridan biri. Boburning ushbu g‘azalida kuz manzarasi ta’rifi orqali lirk oshiq sifatida ma’shuqaga murojaat qilar ekan, birinchi va ikkinchi bayt mazmun mohiyatidan kelib chiqqan alohida-alohida tasviriy iboralar qo‘llaydi. Birinchi baytda “ey lola rux”, *ikkinchi baytda* “ey gul”, murojaat shakllarini ya’ni undalmani kuzatish mumkin. Udhbu undalmalar istiora san’atini yuzaga keltirigan. Shoir qo‘llagan bu undalmalar o‘z ma’nosida emas, balki, majoziy ma’noda go‘zal mahbubaga murojaat tarzida qo‘llanilgan. Bu she’riyat jozibasini ta’min etishga va o‘quvchda ham oshiqqa ergashib, mashuqadan shafqat kutish istagini paydo qiladi. Chunki ushbu baytlardagi zid ma’noli xazon yaprog‘i, gul yuz, lolaruh, chehrai zard (sariq) so‘zlarda tazod san’ati asosida oshiq va ma’shuqning xarakterlari o‘z ifodasini topgan. Sarv qadli ma’shuqa o‘ta darajada o‘jar, uning ayog‘iga yiqilib bargi xazondek yalborguvchi oshiqqa zarracha muruvvat ko‘rsatmaydi.

G‘azalning uchinchi baytida qo‘llangan: gulshan, gul, bog‘, yafroq singari uyadosh so‘zlardan ustalik bilan foydalanib Bobur tanosub san’atini yaratgan. Bu esa g‘azal jozibasini yana bir pog‘ona ko‘taradi. Oshiq bemuruvvat ma’shuqadan hech xafa bo‘lmaydi. Aksincha, bir umr uni shu go‘zallik, joziba tark etmasligini aytadi.

To‘rtinchi baytga murojat qiladigan bo‘lsak, bu baytda Bobur kuzning sariq-qizil ranglarini ifodalovchi sifatlarni yuz va ko‘z yoshga ko‘chirib, o‘zining ayanchli holatini ko‘rgan elning nafratidan o‘zini bir amallab qutqargani uchun Ollohga shukonalar aytadi.

Beshinchi baytida yana shoir axtari (yulduz), falak so‘zlari yordamida tanosub san’ati orqali o‘z baxt yulduzini topolmaganligi sababini anglalolmay hayronalar bo‘ladi.

G‘azalning so‘ngi bayrida shoir oshiqning holatini yorqinroq ifodalash, uning ma’shuqa vasliga yetishish uchun har qanday to‘siqlarni yengishga qodirligi,

o‘z e’tiqodiga sadoqatli, ochiq ko‘ngil, tanti va jo‘mardligi yana zid ma’noli ta’natrif, yaxshi-yamon so‘zlarni qo‘llab tazod sanati orqali o‘z e’tiqodiga sadoqatini namoyon bo‘ladi.

Demak, badiiy asar tahlilida ona tili va adabiyot fani o‘rtasidagi integrasiya o‘quvchilarni asar masmuni va mohiyatini yanada chuqurroq anglashlari va idrok etishlariga yordam beradi.

Bevosita ma’shuqaga murojaat qilganda, oshiqlik iztiroblari haddan oshgani oqibatida o‘ziga o‘limni ravo ko‘rganini ta’kidlash yetakchilik qilsa, uchinchi shaxs sifatida esa “ey rafiq” do‘s, tinglovchi, hamdard ma’nosida keladi. Ya’ni oshiq do‘stiga ishqidan ozurda ekani, besamar oshiqlikdan o‘limni afzal ko‘rganini tushuntirib bermoqda; ko‘nglini bu olamdagи boshqa jafolar endi qo‘rqita olmasligini, oshiqliq azoblari oldida dunyoning boshqa qo‘rqinchlari, dahshat-vahimalari ko‘rimsiz va arzimasligini ta’kidlamoqda. Bunday intim kechinmalar zamirida muallif ma’lum ma’noda ijtimoiy mazmunni ham aks ettiradi: oshiq – shoh Boburning o‘zi, uni hajrida sarg’aytirgan ma’shuqa –Vatan. Ana shu Vatanning adoqsiz sog’inchi, Ona yurt vasliga yetolmaslik haqiqati – dahshatlì qo‘rqinch. Tug’ilib o‘sgan diyoriga qaytolmaslikni anglab yashashdan ortiq vahimali hayot bo‘lmasa kerak bu olamda.

Yuqoridagilardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- Adabiyot darlarida fanlararo integrasiya o‘quvchilarda badiiy adabiyotga qiziqish va muhabbatni kuchaytiradi.
- Asar tahliliga oid ilmiy-nazariy bilimlar bilan birga boshqa fanlardan olingan bilimlarni qayta xotirlash orqali ularni yanada chuqurlashtiriadi.

II bob. Umumta’lim maktablarining adabiyot darslarida integrasiyadan foydalananish metodikasi

II.1. DTS talablari asosida yaratilgan darsliklarda aks etgan mavzularni o‘tishda integrasiyalan foydalananish usullari

Umumiyl o‘rta maktab o‘quvchilarining mustaqil fikrlash malakasini va nutqiy faoliyatini o‘stirishda, badiiy asarni san’at namunasi sifatida anglab olishlarida adabiyotni ona tili bilan bog‘liq holda o‘qitish alohida ahamiyatga ega.

O‘quvchilarga badiiy vositalar — sifatlash, o‘xshatish, istiora, jonlantirish, mubolag‘a, ifodalash vositalari — ritorik so‘roq, takror, undov, inversiya, murojaat, shuningdek, omonim, sinonim, antonim haqidagi ma’lumotlar, asosan, V—VII sinflarda beriladi. Masalan, V sinfda o‘quvchilar Hamid Olimjonniig «Oygul bilan Baxtiyor» dostonini o‘rganganda so‘zlarning to‘g‘ri va ko‘chma ma’noda ishlatalishi o‘xshatish;

Xudoyberdi To‘xtaboevning «Sariq devni minib» romanidan parchani («Sehrli qalpoqcha») mutolaa qilganda sarguzasht asar;

Alisher Navoiyning qit’a va fardlarini o‘rgatishda fard;

Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» dostonini tahlil qilishda didaktik badiiy asar;

Boburning «Boburnoma» asari bilan tanishganda memuar janri haqida ma’lumot oladilar; asarlarning til va badiiy xususiyatlari bilan tanishish orqali tilning mohiyati, uslubiy, leksik va frazeologiya boyligi haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

O‘qituvchi adabiyotni ona tili bilan bog‘lab olib borar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdsk, takrorlash— umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o‘rni bilan bog‘lanishni matnlardan foydalananadi. Bunday matnlardan foydalananish ona tiliga adabiy va adabiyot darslarini bog‘lashga, badiiy asar tilining go‘zalligini his qilish va mazmunini puxta o‘zlashtirishga yordam beradi.

Adabiyot va ona tili darslarini bir o‘qituvchi olib borishi — bu fanlarni o‘zaro aloqada o‘rgatishga katta imkoniyat yaratadi.

Adabiyot so‘z san’atli bo‘lganligi tufayli, ona tilni asosli ravishda anglamasdan turib, o‘quvchilar oldida adabiyotniig go‘zalligi va qudratli tarbiya vositasi ekanligini namoyish qilish mumkii emas. Ona tili va adabiyot darslarida amalga oshirish lozim bo‘lgan asosiy masala o‘quvchilarda so‘zga qiziqish va e’tibor hissini muntazam sur’atda o‘stirib borishdan, ularga so‘zning ahamiyatini, turli matnlarda tutgan o‘rnini tushuntirishdan iboratdir.

V sinf ona tili kursining «Leksika» bo‘limida o‘uvchilar so‘zning ma’nosi, bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar, so‘zlarning ko‘chma ma’noda qo‘llanishi, omonim, sinonim, antonim tushunchalari bilan tanishadilar. O‘zbek tilining lug‘at boyligi; o‘zbek tili lug‘atining boyish manbalari; umumxalq ishlataidigan so‘zlar; shevaga doir so‘zlar; kasb-hunarga doir so‘zlar; yangi paydo bo‘lgan so‘zlar; eskirib qolgan so‘zlarni o‘rganadilar. Bu tushunchalarning hammasi adabiyot bilan bog‘liqdir. Chunki badiiy adabiyot va xalq og‘zaki ijodi ona tili boyligini o‘zlashtirishda asosiy manba hisoblanadi. «Leksika» bo‘limi uni o‘rganish keyingi barcha sinf adabiyot darslarida davom ettiriladi.

Yuqori sinfda badiiy asarning tili o‘rganilayotganda uslubiy tahlil mashg‘ulotlari o‘tkaziladi. Uslub tahlilida asarning g‘oyaviy mazmunini ifodalovchi til vositalari aniqlanadi, muallifning so‘z tanlash, gap tuzish mahorati ko‘zdan kechiriladi. Masalan, Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romani bo‘yicha uslubiy mashg‘ulot olib borilar ekan, o‘quvchilarda yozuvchining so‘z tanlash va so‘zlarni o‘zaro bog‘lash usullari, sintaktik qurilishlarning o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari, shuningdek, tinish belgilarining ishlatalishi aniqlanadi.

Oybekda so‘z tanlashda o‘ziga xoslik bor. U ifodalilikni ta’minlash, uslubiy ravonlikka erishish maqsadida sinonimlardan keng foydalanadi. o‘qituvchi bu haqda gapirar ekan, o‘quvchilarga «O‘zbek tili darsligi»da uslubiy sinonimlarning yoritilishini eslatadi.

O‘qituvchi adabiyotni ona tili bilan bog‘lab olib borar ekan, yangi materialni bayon qilish, mustahkamlash jarayonida, shuningdsk, takrorlash—umumlashtirish vaqtida u yoki bu mavzu yuzasidan o‘rni bilan bog‘lanishni matnlardan foydalanadi. Bunday matnlardan foydalanish ona tiliga adabiy va adabiyot darslarini bog‘lashga, badiiy asar tilining go‘zalligini his qilish va mazmunini puxta o‘zlashtirishga yordam beradi.

Har bir yozuvchining hayoti va ijodi u yashab ijod etgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan chambarchas bog‘langan bo‘ladn. Shu sababli yozuvchining hayoti va ijodi u yashagan davrdagi tarixiy voqealarga bog‘liq holda o‘rganiladi, adabiy-tarixiy jarayon esa ijtimoiy va tarixiy hodisalar in’ikosi sifatida tushuntiriladi.

Tarixiylik adabiyot o‘qitiшda asosiy shart hisoblanadi. YOzuvchining ijodiy rivoji tarixiylik asosida ijodiy faoliyatining uzviy qismi, asari u yoki bu davr adabiyoti taraqqiyotidagi hodisa sifatida o‘rganiladi.

Darsda tarixiy shaxslar (jumladan, yozuvchilar) faoliyatiga baho berishda ularning tarixda tutgan mavqeい yoritiladi.

Adabiyot va tarix fani bir-biriga juda yaqin turadi. Chunonchi P.Qodirovning «Yulduzli tunlar» romanidan olingan parchani o‘tishda tarix darsida O‘zbekiston xalqlari tarixi bo‘yicha olgan bilimlari eslatiladi.

V, VI, VII, VIII, IX sinflarda «XIV—XVI asrlar adabiyoti», «Alisher Navoiyning hayoti va ijodi»ni o‘rganishda tarix darslarida o‘tilgan «XIV—XVI asrlarda O‘zbekistonning siyosiy ahvoli, xo‘jalik va madaniy hayoti» bo‘limidagi «Temur davlatining tashkil topishi, temuriylar davrida madaniy hayot», Furqatning satiralarini tahlil qilishda o‘quvchilarning «XVIII asrning oxirida burjua Fransiyasiga qarshi urushlarda chorizmniig ishtiroki» haqida olgan bilimlariga asoslanish ijobiy natija beradi.

O‘quvchilar V sinfda G‘afur G‘ulomning she’rlari hamda “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasini o‘qish, o‘rganish bilan unda tarixiy voqeа aks ettirilganini ko‘radilar. She’rda tasvirlangan voqeani o‘quvchilar 7-sinf tarix darsi orqali bilib oladilar. Bu esa hikoya tahlilini tarixiy dalillarga bog‘lab o‘tkazishga imkon beradi. Bu, o‘z navbatida, hikoyada ifodalangan fikr, g‘oyani chuqur anglashni ta’minlabgina qolmay, darsda ko‘rgazmalilik vazifasini ham bajaradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi V — IX sinflar adabiyot darslarida manzara lirkasi salmoqli o‘rinni egallaydi. Bu she’riy matnlarning aksariyatida voqeа jo‘g‘rofiy dalillar, hodisalar bilan bog‘liq holda tasvirlangan.

V sinfda Usmon Nosirning «Yur tog‘larga chiqaylik», «Gulzor –chaman...»⁶, Mirtemirning «Bulut», «Shudring», «Qishlog‘im», Muqimiyning «Sayohatnama», 6-sinfda E.Vohidovning “O‘zbegim” she’rlarini o‘rganishda ham o‘quvchilarning jo‘g‘rofiyadan olgan bilimlariga suyaniladi. So‘ngra ularni o‘qitadi, tahlil qiladi.

Darsda faqat yozuvchilarning asarlarini emas, balki hayot yulini o‘rganishda ham jo‘g‘rofiyaga oid ma’lumotlardan foydalaniladi.

Masalan, o‘qituvchi VI—XI sinflarda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimi, Furqat, Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti bo‘yicha uyushtiriladigan mashg‘ulotda jo‘g‘rofiya xaritalaridan ular yashagan va bo‘lgan shaharlarni ko‘rsatadi. Ma’lumki, yozuvchi o‘zi yashab, ijod etgan voha yoki shahar hayotining u yoki bu tomonlarini tahlil qiladi, o‘rganadi va asarida uni o‘ziga xos yo‘sinda tasvirlaydi.

⁶ Узбийлаштирилган Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт. Ўзбек тили.(5-9 синклар). Т.: 2010.59-б.

II.2. Umumta’lim maktablarida adabiy mavzularni o’rgatishda fanlararo integrasiyadan foydalanish metodikasi.

Adabiyot darslarida foydalilanidigan jo‘g‘rofiy materiallar o‘quvchilarni tabiat voqealari va hodisalari, xalq xo‘jaligi, kishilik jamiyatida bo‘lib turadigan o‘zgarishlar bilai tanishtirishda muhim rol o‘ynaydi, badiiy asarlarda aks ettirilgan voqeani chuqur idrok etishni ta’minlaydi.

Muqimiy umrini, asosan, Qo‘qonda o‘tkazdi. Imkoniyat bo‘lgan vaqtarda Qo‘qonning atrof qishloqlariga, Farg‘ona vodiysining turli joylariga sayohatga bordi. «Qo‘qondan Shohimardongacha», «Qo‘qondan Farg‘onagacha», «Qo‘qondan Isfaragacha» safar qilib, Farg‘ona vodiysining 20 dan ortiq qishloqlarida bo‘ldi.

O‘qituvchi bu haqda «Sayohatnama»ni o‘rganish oldidan qilgan kirish so‘zida tushuncha berayotgan «O‘zbekistoniing tabiiy jo‘g‘rofiyasi» xaritasidan foydalanishi mumkin.

Adabiyotni tasviriy san’at, musiqa kabi san’at turlari bilan bog‘liq holda o‘qitish maktab tajribasida bir necha yillardan buyon sinab kelinmoqda. Ma’lumki, adabiyot darslarida tasviriy san’at asarlaridan turli maqsadda—o‘rganilayotgan asar va undagi obrazlarni o‘rganish, o‘quvchilarning madaniy va estetik dunyoqarashini rivojlantirish, ma’naviy dunyosini boyitishda foydalilanadi.

Furqat, Muqimiyning hayoti va ijodi haqida ma’lumot berishda uning portreti va ijodiy faoliyatiga doir rasmlar shoir ijodini chuqur o‘zlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Musiqa hayotimizda katta o‘rin egallagan san’at turlaridandir, Musiqa kishini o‘ziga sehrlab qo‘yadi, uni tushunish esa dunyoni anglamoq demakdir. Biz musiqani radio, zangori ekran orqali, teatr va konsert zallarida, maktab va

oromgohlarda— xullas, hamma joyda tinglaymiz.

Olimlar musiqaning o‘ziga xos xususiyatini mavjudligini, u kishilarni butkul ehtirosga solib, o‘z olamiga maftun qilishini ta’kidlaydi.

Musiqa o‘quvchilarda adabiyotga, mehnatga, go‘zallikni yaratishga havas, qiziqish hissini tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydn.

Masalan, Alisher Navoiy she’riyatini o‘rganishda «Guluzorim», «O‘lturg‘usi», «O‘lmasun», «Bormikan», «O‘n sakkiz yoshindadur» qo‘shiqlarini; Muqimiyl lirikasini o‘rganishda «Suvora», «Bir kelib ketsun», «Muncha ham», «Kim desun», «Ayrilmasun» qo‘shiqlarini; Furqat ijodini o‘rganishda «Sayding qo‘yaber, sayyod», «Istar ko‘ngil», «Bahor ayyomida», «Ul qaro ko‘z» qo‘shiqlarini, Hamza hayoti va ijodi o‘rganilganda uning xotirasiga bag‘ishlab yozilgan I. Akbarovning «Shoir xotirasi», D. Zokirovning «Hamza» simfonik poemalari, S. Boboevning «Hamza» operasidan parchalarni eshittirish mumkin. Bunday vaqtida o‘quvchilarga «Bu kimnipyg she’ri?», «Qo‘sinq musiqasini qaysi bastakor yozgan?», «Ashulani kim ijro etdi?» kabi savollar berib, qisqacha suhbat o‘tkaziladi.

Bu esa, adabiyot o‘qitishni mamlakatimizda ijtimoiy va madaniy hayot sohasida yuz berayotgan rivojlanish darajasiga ko‘tarishda muhim omildir.

Bugungi kunda yosh avlodni komil inson ruhida tarbiyalashda adabiyot va tarix fanlarining o‘rni beqiyos. Chunki, O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganlaridek, o‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning keljagi yo‘q⁷.

Shunday ekan, umumta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘rganishda tarix

⁷ И. А. Каримов. “Юқсак маънавият- енгилмас күч”. –Т.: “Маънавият”, 2008, 4-бет

fani bilan bog‘lab o‘rganish dolzarb mavzulardan biridir.

Har bir badiiy asar o‘zidan ma’lum bir tarixiy voqelikni aks ettiradi. Adabiyot darslarini tarix faniga uzviy bog‘liq holda o‘rganish o‘quvchiga vatanga muhabbat, o‘z tarixini o‘rganishga qiziqishni uyg‘otadi.

Adabiyot fani tarix fani bilan uzviy bog‘liqdir. Bu ikki fanni bir-biridan ayro holda o‘rganib bo‘lmaydi. Zero, biror bir ijodkorning hayoti va ijodini o‘rganishda, ijodkor yashagan davr va uning asari, asardagi qahramon va obrazlar, unda tasvirlangan voqeа-hodisalar mohiyatni chuqurroq anglash uchun tarix faniga murojaat qilinadi va tarixiy muhitni bilish zarurati ham paydo bo‘ladi.

Tarix va adabiyot bir-biri bilan yonma-yon yashaydi, ammo ularning tasvir ob’ektlari ham, vositalari ham boshqa-boshqadir. Tarix kishilik jamiyatining taraqqiyoti bosqichlarini o‘rganuvchi fandir. Badiiy adabiyot esa turli davrlardagi xalq xayolotini, inson ruhiyatining o‘ziga xos qirralarini kashf etuvchi san’atdir.

Ma’lumki, adabiyot fani o‘quvchiga ma’naviy-ruhiy jihatdan ta’sir qilib, jamiyat va inson o‘rtasidagi munosabatlар mohiyatini idrok etishda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, adabiyot bo‘yicha hozirgi dasturga kiritilgan asarlarni tanlashda o‘quvchilarining yosh xususiyatlari, ruhiyati, aqliy rivojlanishi hisobga olingan bo‘lib, ularda axloqiy-estetik xususiyatlarni shakllantirish bilan bir qatorda tarixiy taraqqiyot haqidagi bilimlarni shakllantirish ko‘zda tutilgan.

O‘qituvchi adabiyot darsini tarix darsi bilan bog‘lab o‘rganishda quyidagilarga e’tibor berishi lozim:

1. Darsda badiiy asarni o‘rganishdan oldin, kirish qismida tarix bilan bog‘lab o‘rganish;
2. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida tarix bilan bog‘lab o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan, 5-9 sinf darsliklariga kiritilgan afsonalar turkumiga kiruvchi

“To‘maris”, “Shiroq” afsonasi, Maqsud Shayxzodaning “Iskandar Zulqarnayn” ertak-dostoni, “Mirzo Ulug‘bek” asari, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” romanlari, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani, Z.M.Boburning “Boburnoma” memuar asari va boshqalarning she’rlari, nasriy asarlari o‘quvchilarga vatanimiz tarixi, uning turli davrlarda o‘ziga xos jihatlari, ajdodlarimiz va ularning jamiyatda tutgan o‘rnini anglashda vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Ularning asarlaridagi tarixiy jarayon va unda ishtirok etgan tarixiy obrazlar, ularning ilm-fan, madaniyat va jamiyatning turli jabhalarida xizmat qilib, qahramonliklarining tasviri - barchasi ma’rifiy-estetik, axloqiy-ta’limiy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarga vatanimiz tarixini tushunish, u bilan muloqotga kirishish, sevish, ardoqlash orqali o‘z ichki dunyosini boyitish imkonini beradi.

Maktab ta’limida adabiyot darsida “To‘maris” afsonasi o‘tilar ekan, bu orqali nafaqat, afsona, adabiyotning bir turi sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga egaligi, afsonada tasvirlangan voqealar va ularning xalqimiz hayotidagi ahamiyati haqida o‘quvchilarga ma’lumot beradi, shu bilan birga afsonada tasvirlangan voqealar yuz bergen joy, davr, tarixiy qaxramonlarning xalqimiz tarixida tutgan o‘rni haqida ham o‘quvchilarga tushuntiriladi. Bu mavzuni 5 sinf O‘zbekiston tarixi darsligida berilgan mil.avv. VI asrda Markaziy Osiyoda yashovchi qabilalar mavzusi bilan bog‘lab o‘tish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali o‘quvchilar afsonadagi voqealarning mohiyatini oson va teran anglab olishlari mumkin.

Z.M. Boburning “Boburnoma” asari tarixiy asar sifatida XV asr oxiri XVI asrning birinchi yarmida Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindistonda yuz bergen, Boburning o‘zi bevosa guvohi bo‘lgan tarixiy voqealar jonli tilda, aniq dalillar, she’riy parchalar asosida yoritiladi. Bu asar adabiyotimizning buyuk namoyondasi Z.M.Boburning ijodiy merosi sifatida va Markaziy Osiyoning XV-XVI asrdagi ilm-fan, madaniyat, san’at, ijtimoiy-siyosiy hayotning “oynasi”

sifatida o‘rganiladi. Darsda asar parchalari ustida ishlaganda “Boburning otasi Umarshayx Mirzo tasviri berilgan qatorni o‘qing, Samarqandda Bobur hukmronligiga qarshi sinflar tasviri berilgan shaxslarni toping, Bobur Temuriyzodalarining bir-biriga bo‘lgan munosabati ta’rifi berilgan o‘rinni o‘qing” kabi topshiriqlar yordamida Boburning taxtga o‘tirishi voqealari, uning hukmdorlik davridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat, Z.M.Boburning Samarqandni tark etishining sabablarini tushunib oladilar.

Xullas, badiiy asarlarning tarixiylik kuchi, Vatan taqdiri, inson hayoti bilan mutanosibligini ko‘rsatish bilan vatanparvarlikka da’vat qilib, inson ruhiyatiga ta’sir qiladi. Bu ruhiyat mehr-muhabbat tuyg‘usi bilan uyg‘unlashib, ulkan maqsad sari etaklaydi. Insonda vatanparvarlik va mehr-muhabbat tuyg‘usiga ehtiyoj tug‘iladiki, bu ehtiyoj asosida adabiyot va tarix fani birlashadi, natijada ulkan bir vazifa amalga oshadi: inson jamiyat bilan munosabatga kirishadi. Bu munosabat insonparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini oshirish va nutqiy faoliyatini o‘stirishda, badiiy asarni san’at namunasi sifatida anglab olishlarida adabiyotni ona tili bilan bog‘liq holda o‘qitish alohida ahamiyatga ega.

-o‘qituvchi dastur materiallarini o‘tishda darsning mazmuniga, o‘quvchilarning bilim saviyasiga, o‘zlashtirish qobiliyatiga, o‘quv qurollarining mavjudligiga qarab usullar tanlaydi.

-Fanlararo integrasiyani tafakkurning rivojlanishiga qiyoslash mumkin.

-Adabiyot estetik ta’sirchanligi xususiyati bilan ona tili va psixologiyaga, g‘oyaviy-ijtimoiy mazmuni bilan tarix va jo‘g‘rofiya bilan uzviy bog‘likdir.

-Fanlararo integrasiyaga xos xususiyat, avvalo, darsdan kuzatilgan maqsad va vazifalarga qarab belgilanadi.

- Fanlararo bog‘lashdagi muvaffaqiyat esa darsning to‘g‘ri tashkil etilishiga, qo‘llangan usullarga bog‘liqdir.

II.3. Dars ishlanmalari

Umumta’lim maktablarining 9-sinf Adabiyot dasturiga shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi, g‘azal va ruboiylarini o‘rganish uchun 7 soat vaqt ajratilgan. Amaldagi DTSda “shoirning hayoti va faoliyati haqida ma’lumot. Ijodiy merosiga umumiylar bir qarash. Shoh-shoirning she’riy ijodi. Shoир lirikasining hasbi hollik xususiyati. G‘azaliyoti. Shoир g‘azallaridagi soddalik va samimiylar yuksak sa’atkorlik namunasi sifatida”⁸liga e’tibor qaratish lozimligi ko‘rsatilgan. Quyidaga dars ishlanmasi adabiyot darslarida integrasiyadan foydalanish samarasi haqida ko‘rsatilgan.

Mavzu: Shoirlilikda shoh, shohlikda shoir – Bobur!

(umumlashtiruvhci dars)

Maqsad: Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish bo‘yicha olgan bilimlarini mustahkamlash, ham lashkarboshi, ham shoir, nosir, ham ibratli, mehribon padar sifatidagi faoliyatini ochib berish. O‘quvchilarda buyuk bobomiz yashab o‘tgan hayot va ijod maktabi bilan iftixor hissini tuydirish, vatanparvarlik, mardlik, dovyuraklik xislatlarini singdirish, ma`naviy kamol toptirish, mustaqil, erkin, ijodiy fikrlashga o‘rgatish.

Metod: global, interfaol, guruhlarda ishslash, klaster, sahnalashtirilgan dars.

Jihoz: Zahiriddin Muhammad Bobur rasmi, asarlari, ilmiy kitoblar, gazeta jurnallar, “Boburiylar shajerasi” haqida plakat, “O‘zbekiston xaritasi”, magnitofon, rag`bat kartochkalari, slaydlar.

Shior: Vatan, to tanda jonim bor, seningdurman, seningdurman.

Tanim xok, o`lsa ham takror, seningdurman, seningdurman

Darsning borishi: Dars “Yaxshilig” musiqa sadosi ostida boshlanadi.
“Xursandman” mashqi

⁸ Узвийлаштирилган Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. Она тили. Адабиёт.Ўзбек тили. (5-9 синфлар). Т.:2010. 85-б.

So`ng guruhlarga navbat beriladi.

Guruhanlar taqdimoti boshlanadi.

Guruhanlar taqdimoti

“Sheryurak” – guruhimiz nomi “Sheryurak”

Boburday shoir kerak!

Maqsadimiz – Bobur yashab o`tgan hayot chiziqlarini va harbiy yurishlarini yoritib berish.

Diqqat qiling!.. Tarix zarvaraqlarida oltin harflar bilan bitilgan shunday sahifalar bor! **1483-yil** – o`z “Xamsa”lari bilan olamni egallagan forsiy shoirlarni yengib, turkiy alfozda o`zbekning nomini yuksakka olib chiqqan ulug` Navoiyning “Xamsa”si dunyoga kela boshladi. Va xuddi ana shu yili Tangri Taalo biz o`zbek xalqiga yana bir inoyat qildi – o`z salohiyati, iste`dodi, harbiy mahorati, zakovati bilan olamni lol qoldirgan shoir va davlat arbobi, mohir sarkarda va olim, tarjimon,

- **1494-** yil Umarshayx Mirzoga qarshi o`z akasi – Samarcand hokimi Sulton Ahmad hamda qaynog`asi – Toshkent hokimi Mahmudxon o`zaro til biriktirib, yurish qiladi. Nihoyat, qaltis vaziyat yuzaga keladi. Buning ustiga kutilmagan falokat otasi – Umarshayx Axsi qo`rg`onida kabutarxonasi bilan qulab, halok bo`ladi. **Umarshayxdan 3 o`g`il** – Bobur mirzo, Jahongir mirzo, Nosir mirzo va 2 qiz qoladi.

- O`g`illarining kattasi 12 yoshli Bobur taomil bo`yicha taxtga o`tiradi. Sulton Ahmadning mag`lubiyati (Ayriliq ko`z yoshlari tinmay turib, qismat unga toj-taxt minnatini kiydirdi). Sulton Mahmudxonning chekinishi.

Bobur bek atka - Mazidbek (Shayx) va Bobo Alibek, onasining yordami bilan 1-g`alabasi – Samarcandni qo`lga kiritdi.

- Samarcandga 3 bor yurishlari, chekinish, ta`rif beriladi.

2 yil sargardonlik – temuriylarning birlashmasligi.

Lirik chekinish “Yod etmas kishini mehnatda kishi”

2) “Topmadim” g`azali o`quvchilar tomonidan o`qiladi

- Andijonda tug`ildi. “Boburnoma” – Jahongir guruhiga

Andijon ta`rifi keltiriladi.

Sheryurak

1504-yil - Afg`oniston, Pokiston, Bangladeshni qo`lga kiritishi

1507-yil – Hindistonga qiziqa boshlashi

1525-yildan Hindistonga yurish boshlashi

1526-yil Panipatda Ibrohim Lo`diy qo`shtiniga qarshi olib borgan jangi va g`alabasi, 1530-yilgacha Hindistonda olib borgan madaniy-ma`rifiy va obodonchilik ishlari haqida so`z yuritiladi.

Xulosa

Demak, Bobur 47 yil umr ko`rib, notinch yashagan bo`lsa ham, o`zining yuksak iste`dodi, salohiyati tufayli o`z umrini jozibali qila oldi.

“Javohir” - guruhimiz Javohir,
Bobur she`riyatda mohir.

- Qanday asarlar yozganini ayting
- Bobur xalqimizning har jihatdan yetuk, g`oyat iste`dodli farzandi edi. Uning hayoti faqat janglar bilan emas, ilhomiy onlar bilan ham to`la edi. U 16-17 yoshlaridan boshlab badiiy ijod bilan shug`ullana boshlagan.
- Bobur o`zbek va fors tillarida ijod qilgan Zullisonayn shoirdir. U ona tilida yozgan she`rlarini to`plab, 1519-yilda Kobulda, 1528-29-yillarda Hindistonda devonlar tuzgan.
- Bu 2 to`plam o`sha joylar nomi bilan “Kobul devoni”, “Hind devoni” deb atalgan. Kobul devoni topilgan emas. Mutaxassislarining fikricha, saqlanib qolgan she`rlarining soni 400 dan ortiq. Shundan 119-g`azal, 231 tasi – ruboiy. Shuningdek, shoir tuyuq, fard, masnaviy, qit`a, muammo kabi janrlarda ham ijod qilgan.
- Bobur 20 yoshida “Xatti Boburiy” kashf etdi.
- Musiqa bilan shug`ullanib, “Chorgoh” maqomida “savt”lar bitdi.
- 1521-yilda she`riy yo`lda soliq ishlarini tartibga soluvchi “Mubayyinul-zakot” (“Zakot bayoni”) asarini yozdi.

- 1523-25-yillarda aruz vazni haqida “Muxtasar” nomli risola yozdi. Boburning “Harb ishi”, “Musiqa ilmi” asarlari hanuz topilgan emas.
- 1528-yilda naqshbandiya shayxlaridan bo`lgan Xo`ja Ubaydulla Ahrorga juda e`tiqod qilar edi, uning fors-tojik tilida yozilgan “Voldiya” asarini she`riy yo`l bilan o`zbekchaga tarjima qilgan (bu asar 1-marta 1912-yilda Istambulda “Milliy tatabbu`lar majmuasi”da bosilgan)
- Bobur devonining katta qismi g`azallardan iborat. G`azallarning ma`lum guruhi hasbi hollik xususiyatiga ega bo`lib, shoir hayotining ma`lum lavhasi bilan bog`lanadi. Uning ko`p she`rlari ”ekspronmt” – badiha tarzida yuzga kelgan. 1500-1501-yillarda Bobur Samarqandni 2 bor olib, yana boy beradi. Bir muddat sarson-sargardonlikda yurib xon dodasi Yunusxonning oldiga boradi, umidlari puchga chiqqach:

Jonimdin o`zga yori vafodor topmadim,
Ko`nguldin o`zga mahrami asror topmadim...

Matla`s i bilan boshlangan g`azalni yozadi.

- Yana ruhiy ezilishlar natijasida bir ruboiy yozadi:
Yod etmas emish kishini g`urbatda kishi
Shod etmas emish ko`ngulni mehnatda kishi,
Ko`nglum bu g`ariblikda shod o`lmadi oh
G`urbatda sevinmas emish, albatta kishi.

Yoki:

- Ko`pdin berikim yoru diyorum yo`qdur,
Har lahzayu, har nafas qarorim yo`qdur
Keldim bu sori o`z ixtiyorim birla
Lekin borurimda ixtiyorim yo`qdur.
- Jahondin menga g`am bo`lsa, ulusdin gar alam bo`lsa,
Ne g`am yuz buncha nam bo`lsa, seningdek g`amgusorim bor
Kimlarningdir dilbandini tig` bilan, qilich bilan bo`ysundirgan – ulus qayg`usiga
sabab bo`lgan Boburning iqrori bu!
- “Visoli lahzasidin zavq topmoqlik erur dushvor

Firoqi shiddatinda yo`qsa jon bermaklik osondur”

(Tazod: visol-firoq, lazzat-shiddat, zavq topmoq – jon bermoqlik, dushvor – oson) oshiq iztiroblarini fojea ekanligidan ta`sirlanasiz.

- Sochi-yu qoshi-yu ko`zidin boshta havodur,
Ne boshda havo, har ikkisi boshqa balodur.
(boshga balo – boshqa balo iyhom san`ati qo`llangan ham ruju bor, ham i`shtiqoq bor – “boshqa-boshqa balo” ekanini chirolyi ifoda etish bor)
- Bosh qofiyali ruboiy yozib, o`z ismi-sharifini mangulikka muhrlagan.
Tuz oh, Zahiri dini Muhammad Bobur,
Yuz oh, Zahiri dini Muhammad Bobur,
Sarrishtai ayshdin ko`ngulni zinhor –
Uz oh, Zahiri dini Muhammad Bobur.
(Zahiriddin Muhammad dinning tayanchi va u bunga umrining oxirigacha sodiq qoldi)
- “Qaddi bila ikki zulfu og`zi,
Jonimga balo bo`lubdur, Olloh!”
Ushbu baytda Bobur ijodiy mo`jizasiga tasanno o`qiydi, kishi. Yozuv sirlaridan voqif etamiz: qadi, 2 zulfi va og`zidan “Olloh” so`zini istixroj usulida yasagan.
 - Istixroj – harflardan so`z yasash san`atidir
Z – qad, bb- 2 zulf, o`giz – “he” – A ga o`xshaydi – Zbbe

Xulosa

Demak, Bobur biz bilgan buyuk Temuriyzodagina emas, mislsiz nozik didli shoirimiz hamdir!

“Jahongir” guruhiga navbat

Guruhimiz Jahongir,

Dunyonni zabit etgan Bobur”

- “Boburnoma” tarixiy, badiiy, memuar asardir. “Memuar” so`zi fransuzcha bo`lib, “esdalik” ma`nosini anglatadi. Muallif o`zi ko`zi bilan ko`rgan, real voqealar

haqida hikoya qilingan asar memuar asar hisoblanadi. (M: Oybekning “Bolalik”, A.Qahhorning “O’tmishdan ertaklar” qissasi)

- Bobur 12 yoshidan taxtga o`tirgandan boshlab, kurashlar, mag`lubiyatlar, g`alabalar, g`am-tashvish va shodliklarga to`la hayoti “Boburnoma”da aks etgan. Bu tarixiy-badiiy asar 1494-1529-yillardagi voqealarni, Movarounnahr, Xuroson, Afg`oniston, Hindistonda ro`y bergen hodisalarini o`z ichiga oladi.

- Boburning o`z so`zi va Gulbadanbeginning “Humoyunnom”dagi ma`lumotlarga qaraganda, ‘Boburnoma’ dastlab “Voqeanoma” deb atalgan. Bobur buni bir ruboiysida eslatib o`tadi:

Bu olam aro ajab sitamlar ko`rdim,
Olam elidin turfa sitamlar ko`rdim,
Har kim bu “Vaqoye”ni o`qub bilgaykim,
Ne ranju, ne mehnatu, ne g`amlar ko`rdim.

- Bundan tashqari bir o`rinda Xo`ja Kalonga “Voqeanoma”ni yuborganini esladi.
- Gulbadanbeginim esa “Humoyunnom”da Kobul hokimiysi haqida so`zlab, “Firdavsmakonning (Boburning) “Voqeanoma” kitobida bunga dalil bo`lguvchi fikrlar ko`p aytilgan” deydi.
- Asar keyinchalik Gulbadanbeginning ta`rifi bilan “Boburnoma” deb yuritildi va shu nom bilan shuhrat qozondi.
- “Boburnoma” 10 dan ziyod qo`lyozma nusxasi ma`lum. “Boburnoma”ning Boburning hayot davrida ko`chirilgan 2 nusxasi haqida ma`lumotlar bo`lsa-da, biroq ularning qayerda saqlanayotgani ma`lum emas.
- “Boburnoma” XVII-XVIII asrlarda ko`chirilgan nusxalari Leningrad, Kalkutta, Agra, Haydarobod, Manchester, London, Edinburg kutubxonalarida saqlanadi.
- “Boburnoma” 1586-yoldayoq fors tiliga, 1705yilda golland tiliga , Djon Leyden va Erskin tomonidan ingliz tiliga, Keyzer tomonidan nemis tiliga, Pavede Kurteyl tomonidan fransuz tiliga, Palyakov, Vyatkin tomonidan rus tiliga tarjima qildi. Sho`ro davrida M.Salye tomonidan to`la tarjima qilinib 3 marta nashr qillindi.
- “Boburnoma” birinchidan, u nodir tarixiy manbadir. Tarixiy voqealar shunday bir izchillik bilan ro`y-rost aks ettirilganki, uning mo`tabar manba sifatidagi ahamiyati

ham ana shunda! Kitob muallifi har qaysi yil voqealarini alohida bir bob sifatida, ma'lum sarlavha ostida bat afsil hikoya qiladi.

- Tarixiy manba sifatida afzalligi qimmati, uning beg'araz, xolis, rostgo'y bayon etishida (gazetadan foydalanish kerak(1))
- H.Boyqaro haqidagi fikrlar, askarlar bilan biday tutishi, sarkardaligi, sodiq beklari-Do'stbek haqida, yuzdan ortiq tarixiy shaxslar, tabiat lavhalari, badiiy asar sifatidagi qimmati.
- Mashhur rus sharqshunosi akademik B.Bartold: "Boburnoma"ni "turkcha proza"ning eng yahshi namunasi" deb baho beradi.
- Andijon, Samarqand ta'rifi, Ulug'bek haqidagi fikri.

Guruhning xulosa

"Boburnoma"-ma'naviyatimiz sof bulog'idir. Shuning uchun o'rganamiz, havas qilamiz, hayratga tushamiz.

"Tojmahal" guruhiga navbatni beramiz.

Bu guruuh Boburning 18 ta farzandi bo`lgani, 11 tasi turli sabablar bilan vafot etgani haqida gapiradi. 4 ta o`g`li – Humoyun Mirzo, Kamron Mirzo, Askariy Mirzo, Hindol Mirzo. 3 ta qizi: Gulbadanbegim, Gulchehrabegim, Gulrangbegimlar haqida ma'lumot beradi.

Xulosa: Bobur va uning avlodlari ibratga loyiqidir.

- **"Hamkorlik"** kvadrati mashqiga o`tiladi.
- Konvertlarda Bobur ruboiyalaridan kesmalar beriladi, uni tez va to`g`ri tiklashga e`tibor qaratiladi.
- **"Men aktyorman"** mashqi asosida "Boburning so`nggi kunlari" ("Yulduzli tunlar" romanidan parcha") qo`yiladi.
- **"Zakovat"** o`yini o`tkaziladi.

Guruhlarga 4 ta quticha savol beriladi.

1-savol: "Agar yuz ming bahor bo`lsa ham, u narsa ochilmaydi" degan edi, u nima? (G`uncha)

2-savol: Bobur u narsani ko`rganda "Vatanini ko`rganday yum-yum yig`lagan". u narsa nima? (Qovun)

3-savol: Bobur “Vatandan ketdim, ammo unda mening nimam qoldi, degan? (Anda jonim qoldi)

4-savol. Bobur “Men qoldirgan 1 narsa xalqlar o`rtasidagi rishtani bog`laydi” degan edi. Bu narsa nima? (Boburnoma)

- **“Bahrubayt”** o`tkaziladi. Har bir taqdimotdan so`ng rag`bat kartochkalari berib boriladi. Son`g dars yakunlanadi.

Uyga vazifa. Insho “Bobur – men sevgan shoir”

“5-sinfda E.Vohidovning “Nido” dostonini o‘rganish” mavzusidagi dars

ishlanma

Umumiy o‘rtalim maktablarining 5-sinfda E.Vohidovning “Nido” dostonini o‘rganish uchun 3 soat vaqt ajratilgan. “Nido” dostonini o‘rganish, uning matni ustida ishslash o‘qituvchi va o‘quvchilardan katta mas’uliyatni talab etadi. Doston o‘quvchilarga 2-3 kun avval mustaqil o‘qish uchun tavsiya etiladi. Darslardagi savol-javoblarda, topshiriqlarda o‘quvchilarning o‘qiganlik natijasi namoyon bo‘ladi.

Quyida 5-sinfda O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning “Nido” dostonini o‘rgatishga oid dars ishlanmasini e’tiboringizga havola qilinadi.

Mavzu: E.Vohidovning “Nido” dostoni (5-sinf)

Darsning maqsadi:

a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga “Nido” dostoni haqida ma’lumot berish, dostonni o‘qish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, og‘zaki nutqini o‘stirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarni Vatanga mehr-muhabbat, mardlik, ezgulik kabi fazilatlarni singdirish;

v) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini, insoniy fazilatlarini o‘stirish.

Dars turi: yangi bilim berish.

Darsda foydalaniladigan jihozlar:

Erkin Vohidov portreti, asarlari, tarqatma materiallar, qog‘ozlar.

Darsning borishi:

I. **Tashkiliy qism.** O‘quvchilar bilan salomlashib, davomat aniqlanadi. Sinf o‘quvchilari kichik guruhlarga ajratiladi. Guruhlarga nom beriladi: 1-guruh – “Yosh adabiyotshunoslar”, 2-guruh- “Zukkolar”, 3-guruh -“Topqirlar”. Guruh sardorlari tayinlanadi.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash.

Guruhlar o‘zaro savol-javoblar yordamida shoirning hayoti va faoliyati o‘rganiladi, mustahkamlanadi. O‘quvchilarning fikrlari umumlashtiriladi, o‘qituvchi tomonidan

o‘tilgan mavzuga xulosa yasaladi. Faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

So‘ngra E.Vohidov she’riyati yuzasidan bahru bayt o‘tkazilishi e’lon qilinadi. Mazkur shartdan so‘ng g‘olib guruh aniqlanadi. O‘qituvchi shoir ijodining o‘ziga xosligi, shoir bo‘lganidan faxrlanishini, o‘z tuyg‘ularini haroratli misralarda bayon etganligini aytib shartga yakun yasaydi. G‘olib guruh rag‘batlantiriladi.

III.Yangi mavzu bayoni:

O‘qituvchi “Nido” dostonining avtobiografik xarakterga ega ekanligini, dostonda **II jahon urushiga ketgan ota, uni bir umr qo‘msab o‘sgan o‘g‘il haqida hikoya qilinishini aytib o‘tadi**. **II jahon urushi natijasida ko‘plab insonlar, yigitlar halok bo‘lganligini, bolalar etim, ayollar beva bo‘lib qolganligini ta’kidlaydi hamda tinchlik ulug‘ ne’mat ekanligini izohlaydi.**

O‘qituvchi doston matnini ifodali o‘qib beradi. O‘quvchilar yod olgan bo‘lsa ulardan so‘rab olishi ham mumkin.

Yangi mavzuga oid qo‘srimcha adabiyotlardan, shoir asarlaridan foydalanish o‘quvchilarning shoir ijodiga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darsning mazkur bosqichida o‘qituvchi quyidagi ish turlaridan foydalanishi mumkin.

1. Har bir guruhga A4 formatdagi qog‘ozlar beriladi. Ushbu qog‘ozlarda “TINCHLIK” so‘zi “Klaster” usulidan foydalanib, izohlash kerak bo‘ladi. Belgilangan vaqtadan so‘ng guruh sardorlari javoblarini izohlab beradilar.

O‘qituvchi guruhning faol o‘quvchilarini rag‘batlantiradi.

2. Guruhlarga topshiriqlar beriladi. 1-guruh – “Yosh adabiyotshunoslar” “Nido” dostonidagi badiiy tasviriy vositalarni topishlari kerak bo‘ladi. Masalan,

Olov sochmoqdadir

Elga beayov,

Shahar, qishloqlarni

Yutmoqda olov.

– jonlantirish.

2-guruhi - “Zukkolar”ga esa “Nido” dostonida berilgan “**Undalma**”larni topadilar.
Masalan,

Nega yig‘layapsan, Yolg‘izim, qo‘zim,
Tun uzoq, uxlay qol, ko‘zlarining yum!

3-guruhi -“Topqirlar” guruhiga esa “Nido” dostonidagi shaxs otlarini topishlari kerak bo‘ladi. Ma’lum vaqt belgilanadi. Ushbu topshiriq orqali fanlararo bog‘lanishni ham yuzaga keltiradi.

V. Baholash va rag‘batlantirish.

Dars so‘ngida baholar e’lon qilinib, eng ko‘p rag‘bat kartochkasi to‘plagan guruhga nominatsiyasi beriladi. Musobaqa g‘oliblari aniqlanadi.

VI. Uyga vazifa berish.

1. “Nido” dostoni yod olib kelish.
2. “Nido”dostoni matniga tayangan holda ijodiy ish yaratish (“Tinchlik - oliy ne’mat” hikoya tuzish).

Mazkur usulda darsni tashkil etish o‘quvchilani faollashtiradi, darsga hamda umuman adabiyotga bo‘lgan qiziqishini o‘stiradi. Rag‘bat kortochkalaridan foydalangan holda baholash esa o‘quvchilarni o‘zini-o‘zi baholashga yordam beradi.

Xulosa

Yuqoridagi fikrlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, har bir fan darsda, faqat o'z qonuniyatlari bilangina yashamasdan, boshqa fanlarning imkoniyatlarni ham e'tiborda tutadi. Bu bilan u o'zidagi imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Hayot qonuniyatlari bir-biri bilan uyg'unlikda yashaganidek, jamiyat va tabiatda ham me'yorini talab etadigan voqealr hodisalar bisyor. Jamiyatning turli sohalarida integrasiya muhim ahamiyatlidir. Ko'rib o'tganimizdek, fanlararo bog'liqlik ham fikrlarimizning yorqin dalilidir.

Adabiyot-oni tili, tarix, musiqa, jo'g'rofiya kabi fanlarining o'zaro aloqadorligi, uzbekligi diqqatimizni jalb qilgan soha bo'ldi, ya'ni xuddi shu bog'liqlik ta'kidlangan fanlar o'rtaida yaqqol namoyon bo'ldi.

Adabiyot va ona tili fanlarining o'zaro o'xshashligi, farqlarini dars davomida o'quvchilarga singdirib borishda o'qituvchi yo'naltirib turuvchi vazifasini bajaradi. O'quvchilar esa bog'liqlik va farqlarni topishda mustaqil izlanadilar, o'z ustida tinimsiz ishlaydilar. Inson ko'nglidagi kechinmalar, samimi tuyg'ularning aksi badiiy adabiyotda namoyon bo'lsa, u xalqning mulkiga, boshqa ko'ngillarning mulkiga aylanishi uchun so'zlardan, til vositalaridan foydalaniadi. Jumlalarni to'g'ri tuzish, so'zlarni o'z o'rnida ishlata bilish, o'z o'rniga qo'ya olish uchun ham grammatik qoidalarni to'g'ri anglab yetishi lozim. Bunda, avvalo, o'quvchi va o'qituvchiga katta mas'uliyat yuklanadi.

Integratsion usullar, ko'rib o'tganimizdek, ta'lim tizimida samarali natijalarni beradi. Integrasiya asosida o'quvchiga ta'lim berish esa quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi;

- integrasiyadan foydalanish o'qituvchining qobiliyatiga, darsga bo'lgan mas'uliyatiga bog'liq;
- integrasiyadan foydalanish o'quvchining mustaqil fikr yuritish qobiliyatini shakllantiradi hamda ularni rivojlantiradi;
- o'quvchini o'z fikrida qat'iy turishga o'rgatadi;
- o'quvchilarni kichik elementlardan katta yangiliklarni kashf qilishga chorlaydi;

- O'quvchilarni har bir narsaga diqqat-e'tibor bilan yondashishga odatlantiradi;
 - o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stiradi;
 - fanlararoaro intergatsiya o'quvchilarni tezkorlikka undaydi;
 - ilmiy bilimlarning har tomonlama mustahkambo'lishini ta'minlaydi;
 - hayot qonuniyatlarining barchasi bir-biriga uzviy aloqadorligini tushunib yetishlarini ta'minlaydi;
 - o'quvchilarining mantiqiy fikr yuritish, teran mushohada etish malakalarini shakllantiribgina qolmay, ularni takomillashtiradi;
 - o'quvchilarni topqirlikka, ziyraklikka chorlaydi.

Adabiyot ona tili, tarix, musiqa, jo‘g‘rofiya fanlari bir-biri bilan uzviy bog’liqlikda yashaydi. Ana shu aloqadorlik, ana shu uyg‘unlikni umumiyl o’rta maktabning o’quvchilariga yangi pedagogik texnologiyalar asosida o’rgatib borish, albatta samarali natijalarni beradi.

Xullas, har bir darsda fanlararo inregratsiyaga alohida e’tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo’ladi, va albatta, yurtning porloq kelajagi uchun barkamol shaxslar, malakali kadrlar yetishib chiqishi uchun dastlabki qadamlar tashlanadi va poydevor yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy majlisga murojatnomasi.-Marifat.2017 yil 23 dekabr.
2. “Ta’lim to’g’risidagi qonun”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisning IX sessiyasida so’zlagan nutqidan. 1997 yil. 29 avgust.
3. Adabiy turlar va janrlar (tarixi va nazariyasiga oid). Uch jildlik. 1 jild. Epos. - Toshkent, Fan, 1991.
4. Adabiyot o’qitish metodikasi. Dasturiy qo’llanma.- T: O’qituvchi, 1997.
5. Adabiyot o’qitish metodikasi.- T: O’qituvchi, 1980.
6. Adabiy ta’lim va yoshlar tarbiyasi. 1-2 kitob. T. 2010.
7. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari .-T: O’zbekiston, 2002.
8. To’xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyadova.T. O’zbek tili o’qitish metodikasi. Yangi asr avlodi. T., 2006.
9. To’xliyev B. Adabiyot o’qitish metodikasi. Yangi asr avlodi. T., 2006.
10. Mirqosimova M. O’quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. T., Fan, 2006.
11. Yo’ldoshev Q. Adabiyot o’qitishning ilmiy nazariy asoslari. T.: O’qituvchi, 1996.
12. Ziyadova T. U. O’quvchilarni mustaqil fikrlashga o’rgatish. T., O’qituvchi, 2002.
13. Zunnunov A., Hotamov N. va bosh. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T. “O‘qituvchi”. 1992.
14. O‘zbek adabiyoti. Majmua. X-sinf. Toshkent. “O‘qituvchi”1997-yil.
15. Yo’ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. Fan. T., 2008.
16. Yo’ldoshev J. Ta’lim yangilanish yo’lida. O’qituvchi. T. 2000.
17. To’xliyev B. R.Niyozmetova , I. Boltayeva. Darsliklar ustida ishlash.Fan. T.2007
18. Filologik ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.2004.
19. Sarimsoqov B T.Halilov. B.Quronboev “ o‘zbek adabiyoti”. VI- sinf uchun. Toshkent, “O‘qituvchi” nashryoti, 1997-yil.

20. Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar.I qism.T.2006.
21. N. Karimov., U.Normatov. Adabiyot 5-sinf uchun darslik.-majmua. - T.: O’qituvchi, 2000,
22. Ilm , fan, taraqqiyot integrasiyasi (Maqolalar to’plami) II qism. Farg’ona.2010/
23. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O’qitish muammolari va yechimlar. T.2009
24. Zunnunov A. Adabiyotni boshqa ijtimoiy –gumanitar fanlarga bog’lab o’rganish. T. 1982.
25. Filologik ta’limda innovatsion texnologiyalar.Ilmiy maqolalar to’plamidagi quyidagi maqolalardan foydalanildi:
 23. B.To’xliyev “Yangi pedagogik texnologiyalar va adabiy ta’lim” . 3-5 betlar. R Niyozmetova “O’zbek adabiyoti darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish”. 24-27-betlar. Q.Yodgorov “O’quvchilar ijodiy tafakkurini o’stirish”.92-96-betlar.
 24. Til va adabiyot ta’limida yangi pedagogik texnologiyalar. I qism. T. 2006. “Talaba Sh. Holiqova (And DU) . “Ona tili darslarida integrasiyali ta’lim”. 93-95-betlar.
 25. Adabiy ta’lim va yoshlar tarbiyasi. 2-kitob.T,2010. Umarova .Ya. Tadqiqotchi (ADU). “Adabiyot va ona tili ta’limida integrasiya”.168-171-betlar.
 26. Ziyadova T.U. Hozirgi o’zbek adabiy tilini o’rganishda kommunikativ jadvallardan foydalanish. O’quv-metodik qo’llanma. Akademik litseylar uchun. T.2002.
 - 27.Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar, – Toshkent, 2008.
 - 28.Yo’ldosheva N., Murodova S. Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning afzalligi. – T.: IPT va nashr ishlari bo‘limi, 2007.
 - 29.O’qitishning zamonaviy usullari. O’quv-uslubiy tavsiyalar. Qo’qon 2004.
 - 30.O’quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish. O’quv-metodik qo’llanma. Andijon -2002.

31. Hasanboev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2009.
32. Hoshimova M. Saidova R. Yangicha dars tiplari. Toshkent, 1996.
33. Internet manbalari

www.literature.uz

www.ziyouz.com

www.ziyonet.uz

www.e-adabiyot.com

[www.adabiyot mazaralari // fecbook.com](http://www.adabiyot.mazaralari)